جدید


Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 23-avgust
№ 35(35)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

XALQ DARDINI KUYLAGAN AVAZ




“...Avaz O‘tar ijtimoiy she’riyati zamirida zulm va zo‘ravonlik hisobiga to‘plangan boyliklarga nafrat, ikki tomonlama zulm ostida qolgan mehnatkash xalq hayotiga achinish tuyg‘usi yotadi. Shoir o‘sha jamiyatda yashab turgan kishilar o‘rtasidagi tafovutlarni, qarama-qarshiliklarni ro‘y-rost ochib tashlaydi...”

(5-sahifada o‘qing).

SIYOSAT

OZARBAYJON RESPUBLIKASI PREZIDENTI O‘ZBEKISTONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev rafiqasi hamrohligida 22-avgust kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.



Toshkent shahri xalqaro aeroportida ularni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarilib, faxriy qorovul saf tortdi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon – ikki qardosh xalq o‘rtasidagi madaniy aloqalar hamma davrlarda ham juda iliq bo‘lgan. Bu munosabatlarning ildizi teranligi haqida o‘ylar ekansiz, xalqimizning bir dono gapi yodga tushadi. Do‘stlikning eskisi, turfa sinovlardan og‘ishmay o‘tgani yaxshi, deydi yoshi ulug‘larimiz.

Bugun tarixiy birdamlik va qardoshlik munosabatlari yanada rivojlanib, yangi darajaga ko‘tarildi. Bunga keyingi yillarda ikki davlat yetakchilarining hamfikrliklari mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni yanada jonlantirib yubordi. Bu aloqalar esa o‘rtadagi hamkorlik hamda strategik sheriklikni rivojlantirib, belgilangan marralarga tezroq erishishda muhim ahamiyat kasb etayotir.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Toshkent shahriga kelgach, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri hamrohligida Haydar Aliyev yodgorligi majmuasiga bordi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan barpo etilgan mazkur majmua Ozarbayjon Prezidentining 2022-yil iyun oyidagi mamlakatimizga tashrifi chog‘ida ochilgan edi.

Oliy martabali mehmon yodgorlik poyiga gul qo‘yib, atoqli siyosiy va davlat arbobi, mustaqil Ozarbayjonning asoschisi Haydar Aliyev xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Shundan so‘ng Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurdi.

Oliy martabali mehmon “Yangi O‘zbekiston” bog‘idagi Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Majmua bilan qisqacha tanishuv asnosida Ozarbayjon Respublikasi delegatsiyasi vakillariga mazkur ansambl mazmuni va me’moriy yechimlari haqida ma’lumot berildi.

“Yangi O‘zbekiston” bog‘i va Mustaqillik monumenti istiqlolimizning o‘ttiz yilligiga bag‘ishlab bunyod etilgan.

Uch ming yildan ziyod davr – ona Vatanimiz hududidagi milliy davlatchilik tarixi ildizlari shu qadar teran. Monumentga e’tibor qaratgan kishi mana shu zalvorli o‘tmishning badiiy ifodasiga guvoh bo‘ladi.

Oliy martabali mehmonlar, rasmiy xorijiy delegatsiyalarning mamlakatimizga tashrifi doirasida bu yerdagi monumentga gul qo‘yish an’anaga aylangan.

Delegatsiya a’zolari majmuada aks ettirilgan allomalar, buyuk sarkarda va jahongirlar, jadid bobolarimizning siymolariga alohida e’tibor qaratdi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 23-avgust kuni bo‘lib o‘tadi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Toshkent shahrida O‘zbekiston va Ozarbayjon yetakchilari raisligida oliy darajadagi muzokaralar va Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisi o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Sammit kun tartibidan O‘zbekiston – Ozarbayjon strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

Prezidentlar ikki mamlakat biznesi vakillari bilan uchrashuv o‘tkazishi, qator ishbilarmonlik va madaniy tadbirlarda ishtirok etishi ham ko‘zda tutilgan.

O‘zA

BUGUNNING SHE’RI

Buyuk ishlar qanot yozdi QORAQALPOQDA

Davlatimiz rahbari Qoraqalpog‘istonda ramziy tugmani bosib, yangi inshootlarning qurilishi va faoliyatini boshlab berdi.

Buyuk ishlar qanot yozdi Qoraqalpoqda,
Buyuklardan buyuk bu el sharaf topmoqda.
Tuzli yerda gul ochib saksovullari,
Shamolidan hattoki chiroq yoqmoqda.

Afsonamas, aytilar urug‘-aymoqqa,
Tandir nonni botirib asal, qaymoqqa.
Matonatni ko‘rmoqchi bo‘lsangiz agar,
Borib ko‘ring bir bora go‘zal Mo‘ynoqqa.

Ko‘chalari ravon, binolar ko‘rkam,
Niyati ulug‘dir, yutug‘i ulkan.
Yurtboshim alqagan bu yurtda bugun
Har ko‘ngilda eshik qoqmoqda ko‘klam.

Yurtboshimiz ko‘zlagan baland marralar,
Gulzorga aylanar tuzli zarralar.
Qoraqalpoq yurtida to‘ylar davomli,
Taralmoqda har uydan qo‘shiq, yallalar.

Mahallasi, maktabi, bog‘cha, dalasi,
Ko‘z o‘ngingda gullagan adir, darasi.
Asrlarga yetarlik aytilar so‘zlar:
“Orolni ham gullatdi o‘zbek bolasi”.

Buyuk ishlar qanot yozdi Qoraqalpoqda,
Buyuklardan buyuk bu el sharaf topmoqda.
Xushxabar tarqalar ovul, qishloqqa:
Zafar tug‘in ildik biz Qoratog‘ga!
Qut-baraka keldi Qoraqalpog‘ga!

Aqshagul TO‘LEGENOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, shoira,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

TAQDIMOT

GLOBAL DUNYONING GLOBAL MIQYOSDAGI YOZUVCHISI



Tili, dini, urf-odatlari bir bo‘lgan turkiy xalqlarni hech qachon bir-biridan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. Ming yillar davomida bir tomonda o‘zbek baxshilari do‘ppini bostirib, do‘mbira quchoqlab “Alpomish”dan olganda, bir tomonda qirg‘iz oqini cho‘qqili oq qalpog‘ini boshga qo‘ndirib, “Manas”ni kuylagani aniq. O‘zbek xalqi Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro, Nozim Hikmat, Nizomiy Ganjaviy, Nasimiy, Fuzuliy, Samad Vurg‘un, Abay, Muxtor Avezov, Chingiz Aytmatov, To‘lagan Qosimbekov, Maxtumquli, Mullanafas kabi mumtoz va zamonaviy adabiyot vakillarini hamisha o‘z ijodkoridek sevib mutolaa qilgan, asarlari ardog‘da bo‘lgan.

(Davomi 2-sahifada).

TARIX VA TAQDIR

MILLAT FIDOYILARI: ABDUQODIR QUSHBEGIYEV (1882–1937)



Chinakam o‘tmishimizning mazmun-mohiyatini xolis va to‘la-to‘kis, bor bo‘y-basti bilan anglashda jadidlik harakati tadqiqoti muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, harakat yetakchilarining haligacha yetarlicha o‘rganilmagan Vatan ozodligi yo‘lidagi fidokorona kurashi, hayoti va achchiq qismatiga oid tarixiy hujjatlarni o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega. Quyida farg‘onalik jadid Abduqodir Qushbegiyevning hozirgacha jamoatchilikka ma’lum bo‘lmagan hayoti va faoliyatiga oid tarixiy ma’lumotlarni e’tiboringizga havola qilmoqdamiz.

(Davomi 7-sahifada).

JADID MATBUOTI

HASRATLI BITIKLAR

yoki XX asrning 20-yillaridagi “Oziq ishlari”dan chiqarilgan xulosa



Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasidagi nodir asarlar orasida “Eski Toshkand arzoq kamitet ishlari” degan manba diqqatimni tortdi. Joyini belgilab qo‘ydim. Xayolim jadid ziyolilari va Abdulla Qodiriy faoliyatiga ketdi. Taxmin qildim. Qodiriyning shu qo‘mitada ishlaganini o‘ylab yurdim. Ichki bir tuyg‘u shu noyob manbani varaqlashga undadi. Kutubxonaga qayta bordim. Nodir bo‘limga kirib, manbalarni varaqlay boshladim...


Odatda o‘zbek matbuoti tarixini o‘rganuvchilar Ziyo Saidning “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar” asariga tayanadi. Kitob qimmatli ma’lumotlarga boy, tartib va tasnifi ma’qul. Biroq bu asar XX asr boshlaridagi boshqa manba va ma’lumotlar hisobiga to‘ldirilsa, o‘zbek matbuot tarixi nisbatan tugal bo‘ladi.

(Davomi 6-sahifada).

NUQTAYI NAZAR

Yaqinda ijtimoiy tarmoqda bir izohni o‘qib qoldik. “Avvallari kinolar hayotdan olinardi, endi hayotimiz kinolardan olinyapti”, deya yozgan izoh muallifi. Shu bir og‘izgina jumlada bugungi media olami, TVlarning umumiy manzarasi va ularning hayotimizga ta’siri juda aniq ifodalangan.

TELENOVELLALAR NIMANI TARG‘IB QILMOQDA?



Biz o‘zbek ma’naviyati, tarbiyasi, odob va axloqi haqida ming jon kuydirib gapirmaylik, millionlab xalqimiz tomosha qiladigan kundalik dasturlar hatto Gollivud filmlarida ham ko‘tarilmaydigan jirkanch va tabu mavzularni namoyish etayotgan bo‘lsa, barcha harakatlarimiz benaf ketadi. Ijtimoiy tarmoqlarda behayo kontentlar ko‘pligidan noliymiz. Ular bir ummonday gap – bir o‘zanga yig‘ishning, boshqarishning imkoni yo‘q. Biroq telekanallarimiz tomoshabin oldidagi mas’uliyatni his qilmayotgani, efirga berilayotgan seriallar-u telenovellalar oldida ijtimoiy tarmoqlar ham ip esholmay qolayotgani achchiq haqiqat. Bu holatga ziyolilar befarq qarab turmasligi, efirdagi kontentlarning yaxshi tomonga o‘zgarishi uchun munosabat bildirishi zarur deb o‘ylayman.

(Davomi 3-sahifada).



GLOBAL DUNYONING GLOBAL MIQYOSDAGI YOZUVCHISI

Boshlanishi 1-sahifada.

Aslini olganda o‘zbek-qirg‘iz adabiy do‘stligi kecha paydo bo‘lgan hodisa emas. O‘tgan asrda ming yillik an’analarni Mirtemir, Chingiz Aytmatov, Odil Yoqubov, Turob To‘la, Suyun Qorayev, Sulton Akbariy, Asil Rashidov, Ibrohim G‘afurov, Ahmadjon Meliboyev, Tursunboy Adashboyev, Zuhriddin Isomiddinov kabi ijodkorlar davom ettirdi. Shuningdek, bu ikki xalq qadimdan og‘a-ini, quda-anda bo‘lib, bordi-keldi qilgan. Sovet davrida o‘zbek xalqiga qora tamg‘a bosilib, “o‘zbeklar ishi”, “paxta ishi” kabi bo‘hton kampaniyalar avj olganida dunyo tan olgan yozuvchi, qirg‘iz elining farzandi Chingiz Aytmatov o‘zbek xalqi haqida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan: *“Qadimiy o‘zbek madaniyati o‘zining ajoyib yutuqlari bilan azaldan ham mashhur. O‘zbeklar O‘rta Osiyoda tengi yo‘q irrigator, dehqon sifatida tanilgan. O‘zbek me’morlari fusunkor Samarqand, Buxoroni bunyod etdilar. O‘zbek xalqi orasidan O‘rta asrning mashhur astronom olimi Ulug‘bek, shoir Alisher Navoiy yetishib chiqdi... Vizantiya madaniyati rivojida rimliklar qanday rol o‘ynagan bo‘lsalar, o‘zbeklar ham O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatiga ana shunday ta’sir o‘tkazdilar”.*

Unda quyidagi ma’lumotlar keltirilgan: *“Sulton Rayev 1958-yil 13-iyulda O‘sh viloyati Qorasuv tumani Jo‘sh qishlog‘ida tug‘ilgan. Qirg‘iziston milliy universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. Mehnat faoliyatini “Qirg‘iziston madaniyati” gazetasida muxbirlikdan boshlagan. Shundan so‘ng “Asaba” gazetasida bosh muharrir o‘rinbosari, “Qirg‘iz ruhi” gazetasi bosh muharriri vazifalarida ishlagan. AQShning Kanzas universitetida jurnalistika bo‘yicha malaka oshirgan. 2002-yildan Qirg‘iziston ta’lim va madaniyat vazirining o‘rinbosari, Madaniyat va san’atni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi prezidenti, Madaniyatni rivojlantirish davlat komissiyasi raisi, Madaniyat vaziri, Madaniyatni rivojlantirish davlat agentligi boshlig‘i, Prezident maslahatchisi, Bosh vazir maslahatchisi, Madaniyat, axborot va turizm vaziri kabi mas’ul lavozimlarda mehnat qilgan. 2021-2022-yillarda Turkiy davlatlar kengashi bosh kotibining o‘rinbosari sifatida faoliyat ko‘rsatgan. U 2022-yildan buyon Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti rahbari bo‘lib, bepoyon turkiy makonda madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish harakatiga yetakchilik qilib kelmoqda”.*

Videorolik yakuniga yetgach, O‘zbekiston xalq shoiri, Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid so‘zga chiqib, 2023-yili Navoiy viloyatida Xalqaro TURKSOY tashkiloti bilan hamkorlikda “Mumtoz she’riyat” nomli adabiy anjuman hamda yangi tashkil qilingan Turkiya Yozarlar birligining Birinchi tashkiliy yig‘ilishi o‘tkazilgani va bu adabiy hayotimizda unutilmas voqea bo‘lgani, shuningdek, turkiy davlatlar adabiyotining o‘tmishi va buguni haqida qisqacha gapirdi.

“Sulton Rayev birgina qirg‘iz elining yoxud turkiy xalqlarning adibi emas, u global dunyoning global miqyosdagi yozuvchisidir”, dedi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, taniqli yozuvchi Xayriddin Sultonov. U bugungi ziddiyatli zamonda milliy o‘zligini, madaniy qadriyat-u an’analarini saqlab qolish, yosh avlodni ham shu ruhda tarbiyalash yer yuzidagi hech bir millatga oson bo‘lmayotgani hamda el-u yurtini sevadigan adiblarga bugun har qachongidan ko‘proq ehtiyoj borligiga alohida to‘xtalib o‘tdi. Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi spikerining birinchi o‘rinbosari, akademik Akmal Saidov, O‘zbekiston – Qirg‘iziston do‘stlik jamiyati raisi, Xalqaro TURKSOY tashkiloti qoshidagi Turk dunyosi Yozarlar birligi raisi Ulug‘bek Esdavlat, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Munavvara Usmonova, Respublika Qirg‘iz milliy madaniyat markazi raisi Rahmatilla Jabborov so‘zga chiqib, yangi kitob va adabiy do‘stlik haqidagi o‘z fikrlarini bildirib o‘tdi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Zuhriddin Isomiddinov o‘zining nomzodlik ishi o‘zbek-qirg‘iz adabiyotiga oid bo‘lgani, talabalik yillarida Sulton Rayevning “Haftaning beshinchi kuni” nomli hikoyasini o‘qigani va juda mutaassir bo‘lib, tarjima qilish orzusida yurgani haqida so‘zladi.

Respublika Qirg‘iz milliy madaniyat markazi Badiiy jamoasi vakili Shekerbek Abdumalikov esa “Manas” eposidan parcha ijro etib, tadbir qatnashchilarining olqishiga sazovor bo‘ldi. Taqdimot so‘nggida Qirg‘iziston xalq yozuvchisi Sulton Rayev so‘zga chiqib, e’tibor va e’tirof uchun avvalo, o‘zbek xalqi, O‘zbekiston rahbariyatiga minnatdorlik bildirdi. Asarlarini mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘girgan tarjimonlar mehnatini qadrlashi haqida gapirib, ularning ishiga yuksak baho berdi. “Yozganlarim o‘zbek xalqining buyuk adibi Mir Alisher Navoiy ijod qilgan tilda jaranglagani mening eng oliy baxtimdir!” dedi u.

Bu kabi adabiy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning davom etishi qardosh xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi aniq. Zero, adabiyot, san’at, madaniyat kabi sohalar ellarni birdamlikka, ezgulikka va tinch-totuv hayot kechirishga chorlaydi.



Kuni kecha “Sevimli” telekanalining tadbirlar zalida Xalqaro TURKSOY tashkiloti bosh kotibi, Qirg‘iziston xalq yozuvchisi Sulton Rayevning “Tanlangan asarlar” kitobi taqdimoti bo‘lib o‘tganini ham ana shu aloqalarning davomi deyish mumkin. Taqdimot avvalida qirg‘iz adibining hayoti va ijodi haqida axborot beruvchi videorolik yig‘ilganlar e’tiboriga havola etildi.

Shahriyor SHAVKAT
Abdumannon MUHAMMAD
olgan suratlar.

TAASSUROT

CHINGIZ AYTMATOVGA ERGASHGAN ADIB

Dastlab, 2023-yil bahorida haftalik adabiyot gazetamizda Sulton Rayevning “Tuproq” hikoyasini Ahmadjon Meliboyev tarjimasida o‘qidim. Ta’sirlandim. Tarjimonga rahmat aytdim. “Tuproq” xayolimga muhrlanib qoldi. Bunga hikoyada bayon qilingan voqelikka mos boshimdan kechirgan bir hodisaning parallel kelgani sabab bo‘lgandir, ehtimol. Uch yil avval Urganch aeroportida yuklarimni topshirib, kutib o‘tirsam, ovozkuchaytirgichdan ikki-uch marta mening ism-familiyam chaqirildi. Hayron bo‘ldim. Aytilgan joyga bordim. Jomadonlar ichini texnikaning “o‘tkir ko‘zlari” bilan tekshirguvchi xodimlar oldida hali topshirgan yuklarim turibdi.



Ular o‘zlariga ish topilganidan mamnun. Bog‘lab tashlangan jomadonimni zudlik bilan ochishni so‘rashdi. Qo‘llarida ulkan qora qaychi. Xotirjam sababini so‘radim. Jomadonimda davlat ahamiyatiga ega favqulodda qimmatbaho bir asotir bor bo‘lishi mumkin emish. Jomadon ichini xayolan kezib chiqdim: ikki cho‘rak, to‘rt buklangan qatpatir, qand-qurs, kiyim-kechak, sovg‘a-salom. Shunga o‘xshash narsalar. Birdan sergak tortdim. Uyga borganimda oyog‘imning tizza va o‘kcha bo‘g‘inlari og‘rishidan shikoyat qilganimda Bahrom akam davosini aytdi: “Suvakesak yopish kerak”. Topib keldi. Rahmat aytdim. Quvondim. Suvakesak deganimiz yoplarning roshida yillar davomida tarashadek qotib qolgan loyning silliq kesakka aylangan shakli. Iliq suvda shu kesakni ivitib, og‘riq bo‘g‘imlarga bog‘lasam, malham bo‘ladi. Meni “favqulodda jinoyat” ustida qo‘lga olgan fidoyi izquvar kayfiyatida jomadonim tepasida turgan hushyor xodimlar savolga tutdi. Ularning ko‘zlariga tik qarab, burro-burro, aniq javob berib turibman. “Nima ekan-u, nimani topdilaring, qanday narsa ekan u?” G‘ishtga o‘xshagan bir qimmatbaho yombinimi, allanimanidir qadim Xorazm tuprog‘idan olib ketayotgan emishman. “Qo‘yinglar-ay, tegmanglar, jomadonni ochib nima qilasizlar? Gapimga ishoninglar. U g‘ishtdek keladigan “asotir” suvakesak, mana oyog‘im, o‘zlaring ham ko‘rdinglar, oqsoqlanib yuribman. Oyoqqa malham bu tuproq, yurtimning sho‘r tuprog‘i”, dedim. Shukrkim, ma’murlarning insofi bor ekan, gapimga ishonishdi. Jomadonni ochib ham o‘tirishmadi. Uyga kelib, shu kesakni suvda ivitib, loy qilib og‘riq uchun malham qilib yopdim. Foyda berdi. Boshidan o‘tgan tabib. Sulton Rayevning “Tuproq” hikoyasini o‘qiganimda boshimdan o‘tgan shu voqea hech xayolimdan ketmadi. Hikoya qahramoni Murodga onasi vasiyatli bir siqim tuproq beradi. Shunga parallel ikkinchi bir epizodda Yaponiyaga borib, Fudziyama tog‘larini ko‘rib, uning etagidan bir siqim tuproq olib kelayotgan Murodni aeroportda xuddi menga o‘xshatib yapon mutasaddilari to‘xtatishadi. Uchoq uchmasdan uni kutib turadi. Yaponlar uchun ona zamin tuprog‘i tabarruk, uni birovning tashqariga olib ketishga haqqi yo‘q. Uchoq oynasidan suvzorlar orasida Yaponiya joylashgan orol bir nuqta bo‘lib ko‘rinadi. Bamisoli bir siqim tuproq u. Yaponiyada suv mo‘l, tuproq qahat. Har bir borgan sayyoh bir siqimdan olib ketaversa, yaponlar quruq yerining bari suvga do‘nadi, deb ham o‘yladim. Yaxshiyam, Xorazmdan uchayotganimda tuproq o‘rnida suvidan olib olmagan ekanman. Hamma joy tuproq va qumzor. Ammo suv qahat. Ehtimol, xorazmliklarning suvini xorijlik olib ketishi mumkin emasdir, degancha o‘zimcha xayolan bir qoida yasab oldim.

Shunday xayol va qiyoslar bilan Sulton Rayevning “Tuprog‘”ini o‘qidim. Biografik xarakterli hikoya sifatida taassurot qoldirdi. Esimda qolgani uchun yaxshi hikoya deb baholadim.

Keyin “Tanlangan asarlar”ini qo‘lga oldim. Hikoyalaridan “Manas otaning avlodi” bilan “Faylasuf”ni o‘qidim. Universitet muhiti bo‘lgani uchun menga tanish talabalar, manzaralar, kayfiyatlar... Qattiqqo‘l domlalarni ko‘rganmiz. Siz ham ularni taniysiz. Umr bo‘yi esda qoladigan imtihonlarni siz ham topshirgansiz yurak hovuchlab. Mabodo muallim bo‘lsangiz, imtihon olish, talabalar bilimini sinovdan o‘tkazishning qitmirona usullarini ham yaxshi bilasiz menga o‘xshab. Hikoyalar tarkibidagi ishq-muhabbat mavzusi esa yoshlikka xos; pokiza ko‘ngil egalariga umr bo‘yi yo‘ldosh. Har ikki hikoya ham menga ma’qul bo‘ldi.

Shu orada kitobdan o‘rin olgan “Tuproq”qa yana qaytdim. Qayta o‘qishga zarurat sezdim va o‘qib zavqlandim. Balki haliroq uchinchi marta yana o‘qisam ham kerak. Zero, bu hikoya bir necha marta o‘qishga arziydi. “Ikki marta o‘qishga arzimaydigan asarni bir marta o‘qish shart emas”, degan gap shunday yaxshi asarlarni mutolaa qilayotganda bot-bot yodimga keladi.

Roman, qissa, sahna asarlaridan “hatlab” o‘tdimda, birdan kitob oxiridagi “Chingiz Aytmatov” essesiga diqqatim muhrlandi. “Uning So‘zi avloddan avlodga o‘tib kelayotgan buyuk vijdon va haqiqat karvoniga o‘xshaydi”. Bu – Chingiz Aytmatov fenomeni uchun juda topib aytilgan o‘ziga xos original bir baho. Sulton Rayevning Chingiz og‘a bilan birinchi va oxirgi uchrashuvi bayon asosida qurilgan essedan bosh ko‘tarmay, uni bir zumda o‘qib tugatdim. Men uchun o‘n yetti yashar yigitchaning Chingiz Aytmatovni ko‘rib qolishi, beixtiyor unga ergashib yurishi qiziq tuyuldi. “Men o‘n besh qadamcha masofada unga ergashib boryapman. Nega bunday qilyapman, o‘zim ham bilmayman...” Odamda g‘ayriixtiyoriy, o‘zi ham anglamaydigan bunday vaziyatlar bo‘lishi tabiiy. Zotan, esseni o‘qiyotib shu yigitcha bilan birga siz ham Aytmatovga ergashib yurasiz, hayajonlanasiz, dovdiraysiz, gaplashish uchun rejalar tuzasiz... Aynan Chingiz Aytmatovni tirik ko‘rib qolgan Sulton Rayev Moskvadagi VGIK yoki Qirg‘iziston Milliy universitetining tarix fakultetiga hujjat topshirib, o‘qishga kira olmay qolgandagi iztiroblarini ham unutadi-qo‘yadi. O‘sha ergashuvni ramzga yo‘yib: “Sulton Rayev bu Chingiz Aytmatovga ergashgan bola, yigitcha, adib...” degan gap o‘yimdan ketmay qoldi. Shunday kayfiyatda “Sevimli” telekanalining tadbirlar zalida bo‘lib o‘tgan adibning “Tanlangan asarlar”i taqdimotiga bordim. Anjumanda Sulton Rayev ijodi va shaxsini bir necha notiq tabiiy ravishda Chingiz Aytmatov fenomeniga bog‘ladi...

Nazarimda, har jihatdan munosib bir shogird, Aytmatovga xos g‘ayrat-shijoat bilan ishlayotgan, yozayotgan bir adibdir Sulton Rayev. U o‘n yetti yoshida Chingiz Aytmatov izidan Qirg‘iziston Madaniyat vazirligigacha ergashib boradi. Aytmatov o‘sha vazirlik binosiga kirib ketadi, u yerda uzoq qoladi, qaytib chiqmaydi... Qarangki, oradan yillar o‘tib, Sulton og‘a o‘z ish faoliyatida Aytmatov izidan ergashib borgan shu mahkamada Madaniyat vaziri bo‘ladi. Adibning essesi Chingiz og‘a bilan uchrashuvlari, suhbatlari, ulug‘ bir inson bilan yonma-yon yurishning sururi xususida juda yaxshi bir asar bo‘libdi. Bir suhbatda Aytmatovning salobati munosabati bilan: “Joy odamni emas, odam joyni tabarruk etarkan-da”, degan hikmat menga ma’qul keldi. Esse juda samimiy, tarjimasi ham yaxshi. Essening “Ustoz” bo‘limidagi bir nuqta menga alam qildi. Chunki Olmaotadagi Muxtor Avezov uy-muzeyiga ikki yil avval men ham borganman. Biroq negadir o‘sha uy-muzeydagi Chingiz Aytmatovning “Mening ikkita milliy ziyoratgohim bor, ularni qalbimga jo qilib xorijiy mamlakatlarga sayohat qilaman, o‘zga xalqlar ostonasidan o‘taman. Bular – “Manas” va Muxtor Avezov. Bular mening xalqlarimning timsollaridir”, degan yozuvga diqqat qilmagan ekanman. Olmaota safarnomasini yozdim. Uy-muzeyga borganimni ham esladim. Ammo Aytmatovning shu e’tirofiga e’tibor bermaganim uchun, to‘g‘risi, o‘zimni kechirmadim.

Sulton Rayev o‘zaro suhbatlarida ustoziga dilida saqlab yurgan bir savolni beradi. Aytmatovning “Jamila”si va shaxsiyati tegrasida urchigan g‘iybat-u g‘urbatlar xususida, ularga munosib javob berish zarurati haqida so‘raydi. Shunda Aytmatov: “Agar men samoda baland parvoz qilayotgan burgut bo‘lsam, umrida botqoq, loydan boshqa hech narsani ko‘rmagan, vaqillab yotgan qurbaqa e’tibor qaratishimga arziydimi?”, deb balanddan kelib javob beradi.

Muhtaram gazetxon, kitobda hali o‘qishim kerak bo‘lgan qissa, roman, dramatik asarlar bor. Ammo adibning hikoyalari va shu bitta esseni o‘qib ham ko‘nglim yorishdi. Sulton Rayev degan bir adib kitoblari, xususan, yangi tarjima bo‘lib nashrdan chiqqan “Tanlangan asarlar”iga ish stolimiz ustidan o‘rin ajratsak, yana ham to‘g‘rirog‘i, ko‘ngil javonidan joy bersak, nazarimda munosib bir ishni qilgan bo‘lamiz. Adib yozgan asarlarini o‘qib gapimga qo‘shilasiz, deb umid qilaman.

Bahodir KARIMOV,
professor

QARDOSHLIK

QADDI TIK, QADRI BALAND QORAQALPOG‘IM!



Uchinchi Renessansning qudratli yelkanini ko‘targan Yangi O‘zbekiston g‘ururi Qoratov cho‘qqisidek yuksak, qalbi Qizilqum sahrosidek keng. Jayxun misol jo‘shqin qoraqalpoq xalqining asrlar davomida davom etgan zildek qaramlik yuki yoydek egib tashlagan qaddini tik, qadrini baland qildi. Ulug‘ Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li o‘z she’rida shior qilib yozgan “Bu dunyoning ko‘rki odam bolasi!” degan da’vat asl ma’nosini topdi. Buyuk Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘li aytgan xalq baxt-saodati uchun yashash, xalq farovonligi uchun ishlash zamoni, qahramon shoir Oshiq Ayoz – Ibroyim Yusupov iborasi bilan aytganda: bu el zo‘r, go‘zal, obod, ko‘rkam bo‘ladigan shukuhli zamon keldi. Qoraqalpoqning Jiyan Jirovdan boshlab O‘zbekiston xalq shoiri Jiyanboy Izboskanovgacha bo‘lgan barcha shoirlari o‘z asarlariga yer, suv, non va el qadrini mavzu qilib olgan edilar.

Esimda, 2004-yilning 20-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasining yangi Bosh vaziri Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Nukusga, Vazirlar Kengashi majlislar zaliga Qoraqalpog‘iston faollarini yig‘ib, hududni barqaror rivojlantirish bilan bog‘liq o‘nga yaqin yo‘nalishlarni batafsil muhokama qildi. Men “Xalq so‘zi” – “Народное слово” gazetalarining mintaqaviy muxbiri sifatida majlisda ko‘tarilgan har bir masalani aniq yozib olganman. Muhokama yakunida Shavkat Miromonovich suv xo‘jaligi sohasining yoshi ulug‘ mas’ulini minbarga taklif qildi. Sodda, samimiy bu odam ko‘proq o‘zi rahbar tashkilot qurayotgan bir to‘g‘on va unga necha kubometr beton qorishmasi sarf bo‘lgani haqida gapirdi. Shunda rahbarimiz u kishini to‘xtatib, “Baraka topgur, yoshulli, men sizga o‘sha to‘g‘on qancha kunga dosh berishini aytib berishim mumkin. Lekin, xudo xayringizni bersin, nega siz mana bu besh yuz azamat bilan qanday qilib qoraqalpoq xalqining qaddini tik, qadrini baland qilishimiz kerakligi haqida gapirmayapsiz? Qachon biz jabrdiyda Mo‘ynoq xalqini toza ichimlik suv quvuri bilan mamnun qilamiz?” dedilar.

Shundan keyin har bir tumanda yerlarni tekislash, kanallar, suv yo‘llari, kollektorlarni rekonstruksiya qilish boshlanib ketdi. Va Yangi O‘zbekiston rahbari bo‘lib Shavkat Mirziyoyev saylanganidan keyin to‘rt oy ichida “Qo‘ng‘irot-Mo‘ynoq” ichimlik suv quvuri qurilib, foydalanishga topshirildi. Bir yil davomida Mo‘ynoqning qiyofasi tanib bo‘lmas darajada o‘zgardi. U yerga aholi qaytadan ko‘chib kela boshladi. Mo‘ynoq haqidagi ilk maqolamni muxbirlik faoliyatimni boshlagan 1979-yili, bundan 45 yil muqaddam baliqchilik kolxozi raisi Quvonchboy Bekmuratov to‘g‘risida yozgan edim. U kishi nafaqaga chiqqach, Nukusga ko‘chgan edi. Yaqinda u Mo‘ynoqqa qaytdi. Qaytganda ham Nukus aeroportidan zamonaviy avialaynerga o‘tirib, Mo‘ynoq aeroportiga qo‘ndi. Trapdan tushib, ko‘zlariga ishonmay qoldi. “Yopiray, Mo‘ynoqmi bu yo Ovruponing megapolislaridan birimi?”. Ravon ko‘chalar, go‘zal xiyobonlarda yurib, quvonchdan ko‘zlariga yosh keldi. Qirq yil avval o‘zi rais “Amudaryo” kolxozining bir baliqchisi, asli shu yerda tug‘ilgan hamyurti, KPSS MQ Siyosiy byurosi a’zosi, Moskva shahrining rahbari Y.Prokofyevga “Bir kelib keting jon Mo‘ynog‘imizga!” deb xat yozgan edi. Xatga bir enlik javob ham kelmadi. Jahonga ma’lum adib To‘lepbergen Qaipbergenov Kreml saroyidagi ulkan anjumanda qizil saltanatning so‘nggi rahbariga Orolbo‘yidagi vaziyat bilan shaxsan kelib tanishishni o‘tinib so‘ragan edi. Bosh kotib loaqal boshini qimirlatib ham qo‘ymadi. Qilgan ishi Sibir daryolari suvini bu tomonga burish loyihasini taqiqlash bo‘ldi xolos.

Bir vaqtlari bugun tavalludining 200 yilligi davlatimiz rahbari qaroriga ko‘ra keng nishonlanayotgan ulkan shoir shunday yozgan edi:

Yo‘q edim, bor bo‘ldim, kamolga keldim,
Minib arabi otlar, davronlar surdim,
Noningni ko‘p yedim, rohatin ko‘rdim,
Xo‘sh omon bo‘l, bizdan qolding, Bo‘zatov.

Poemada “Taqdir Allohdandir, sabab – Qo‘ng‘irotdan” degan satr bor. Buning mazmuni u chog‘lari Qo‘ng‘irotda hukm surgan qoraqalpoq xoni Muhammad Fano Bo‘zatovga o‘ng ko‘z bilan qararmikan, degan orzudan iborat edi. Orzu orzuligicha qolib ketdi. Oradan ko‘p yillar o‘tib Yangi O‘zbekiston rahbari Ajiniyozning Bo‘zatovini qayta tikladi. U yer sanoat va san’at maskaniga aylandi. Kuni kecha hurmatli Prezidentimiz Qoraqalpog‘istonda bo‘lganlarida “Mening bosh maqsadim, bu xalq roziligini olish, uni baxtli ko‘rishdan iborat!” dedilar. Kegayli tumanidagi “Juzimbog‘” maskanida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda bu haqda batafsil fikrlashildi.

– Har gal davlatimiz rahbari bilan uchrashganimda xuddi toshqin daryodek to‘lqinlanaman, – deydi O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Najimatdin Ansatboyev. – Eng avvalo, o‘z sohamdan gap ochsam, jahonning eng ilg‘or teatrlarini ko‘rgan odam sifatida ishonch bilan ayta olamanki, o‘zbek va qoraqalpoq teatr san’ati Yangi O‘zbekistonda misli ko‘rilmagan darajada yuksaldi. Hozirgi teatrlarimizga kirsangiz, bahri dilingiz ochiladi. Eng muhimi, ularga tinch mamlakatning to‘q, xotirjam tomoshabinlari kirmoqda. Bu tinchlikni bizga yurt egasi ta’minlab berdi. Yaqinda Shavkat Miromonovich yon qo‘shni, jon qo‘shni, abadiy do‘st Qozog‘istonning “Oltin Qiron” oliy ordeni bilan taqdirlandi. Nazarimda, bu ordenning jilosi Parijda muzaffar o‘g‘il-qizlarimiz olgan medallar bilan birga jahon bo‘ylab yog‘du taratdi. Iloyim yurtimizga ham, yurt rahbariga ham ko‘z tegmasin!

Tashrif chog‘ida Prezident Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining Qoraqalpog‘iston filialini borib ko‘rdi. Davlatimiz rahbari 2021-yilda hududga tashrifi chog‘ida IT-park uchun yangi bino qurish bo‘yicha ko‘rsatma bergan edi. Shunga muvofiq, Nukus shahri markazida 17 qavatli zamonaviy bino bunyod etildi. Bu yerda IT-ta’lim va kovorking markazlari, ofislar, konferensiya zali va xizmat xonalari mavjud. AQShning Amazon kompaniyasida ishlagan qoraqalpog‘istonlik Beknazar Abdikamalov yurtiga qaytib, o‘zining HUPO startapiga to‘rt million dollar sarmoya jalb qilgan. Prezidentimiz u bilan suhbatlashib, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatladi. IT-park rezidentlari, axborot texnologiyalari sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar bilan muloqot qildi. Yoshlarning fikrlarini tinglab, takliflarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mutasaddilarga ko‘rsatmalar berdi.

Prezident hududdagi bir qator yirik investitsion loyihalar ibtidosi uchun start berdi. Bu Xitoyning “Sany Renewable” kompaniyasi tomonidan Qo‘ng‘irot tumanida quriladigan qiymati 1 milliard 200 million dollarlik, 1 gigavatt quvvatli, Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi bilan hamkorlikda Beruniy va Qorao‘zak tumanlarida tashkil etiladigan qiymati 250 million dollarlik 100 megavatt elektr energiyasini saqlash tizimiga ega 200 megavatt quvvatli shamol elektr stansiyalaridir. Kelgusida ularda yiliga 4 milliard 200 million kilovatt soat yoki 1 million 750 ming xonadonning bir yillik iste’moliga teng “yashil” energiya ishlab chiqariladi. Natijada qariyb 1,3 milliard metr kub tabiiy gaz tejaladi va atmosfera zararlanishi qariyb 2 million tonnaga qisqaradi.

Tashrif doirasida Nukusda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqoti bo‘lib o‘tdi. So‘nggi yillarda an’anaga aylangan bu muloqot sohadagi tizimli muammolarni hal etishi, takliflar muhokama qilinishi va yangi qulayliklar yaratishi bilan ishbilarmonlar kutadigan tadbirga aylandi. Bu safargi ochiq muloqot yil mobaynida davom etdi, deyish mumkin. Prezidentdan boshlab Bosh vazir, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, hokimlar, Savdo-sanoat palatasi rahbari, Biznes ombudsman tadbirkor bilan doimiy muloqotda bo‘ldi.

Prezident bu yilgi ochiq muloqot aynan Qoraqalpog‘istonda o‘tkazilayotganiga e’tibor qaratib, bu yerda tadbirkorlik qilishning afzal tomonlarini aytdi. Xususan, Qoraqalpog‘istonda biznes uchun 50 dan ortiq imtiyozlar berilgan. Bu boshqa hududlarda yo‘q. Qoraqalpog‘istonda yer ajratishning sodda tizimi joriy etilgan. Bu hudud katta bozorlarga chiqish uchun ham qulay. Ushbu imkoniyatlarni samarali ishga solish maqsadida “Qoraqalpog‘istonda biznes qiling” dasturi qabul qilinishi ta’kidlandi. Tadbir ochiq muloqot tarzida davom etdi. Markaziy va hududiy studiyalarda qatnashgan tadbirkorlar, chet ellarda o‘z biznesini ochgan vatandoshlarimiz fikr-mulohazalarini bildirdi. Muammolar muhokama qilinib, takliflar qo‘llab-quvvatlandi.

Davlatimiz rahbari Nukus shahridagi “Oqqush” majmuasida tashkil etilgan o‘tovlar ko‘rgazmasini ham ko‘zdan kechirdi. Bu majmua hurmatli Prezidentimizning 2022-yilda hududga tashrifi chog‘ida bergan ko‘rsatmasi asosida ellik gektardan ortiq maydonda yaratildi. U yer obod go‘shaga aylantirildi.

– Eng katta o‘tovning diametri 42, balandligi 22 metr ekanligi hammamizni hayratga soldi, – deydi Respublika qozoq milliy madaniy markazi raisi Serikboy Usenov. – O‘tov ichida davlatimiz rahbari bilan samimiy suhbatlashdik. Bu yerda turli madaniy tadbirlar, forumlar o‘tkazish mumkin. Majmuada qoraqalpoq, turkman, qirg‘iz, boshqird kabi turkiy xalqlar qatori biz qozoqlarning o‘tovlari ham tikilgan. Bu yerda tug‘ishgan xalqlarning tarixi, etnografiyasi, urf-odatlari yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. Bunday maskanlarda o‘tkazilayotgan tadbirlar xalqlarimiz orasidagi do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlaydi.

Davlatimiz rahbarining Orolbo‘yi diyoriga bu galgi tashrifi butun mamlakat uchun unutilmas voqea bo‘ldi. Ulug‘ bobomiz Ajiniyoz tavalludining 200 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish asnosida biz qoraqalpog‘istonlik ijod ahli ko‘nglida yangi-yangi satrlar, asarlar tug‘ilmoqda. Zero, bugun Uchinchi Uyg‘onish, eng avvalo, insonlarning, shu jumladan, biz adiblarning tafakkurimizda bo‘y tiklamoqda.

Yangiboy QO‘CHQOROV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

TELENOVELLALAR NIMANI TARG‘IB QILMOQDA?



Boshlanishi 1-sahifada.

Seriallar haqida uzoq gapirish mumkin, lekin biz diqqat qaratmoqchi bo‘lgan jihat – telenovellalar masalasi. Bir paytlar telenovella deganda asosan “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” ko‘rsatuvini tushunardik. Unda hayotda uchrab turadigan turli illatlar, oilalardagi nosog‘lom munosabatlar o‘ta mahorat bilan ko‘rsatib berilardi. Albatta, novella so‘ngida qissadan hissa aytilardi, ya’ni tomoshabinga bu voqea orqali yetkazmoqchi bo‘lgan mushohadalar bayon etilardi. Bugun efirga uzatilayotgan novellalarning mavzusi, syujeti o‘z yo‘liga, ammo ularning “ko‘rish”lar soni izidan quvib, har qanday xaypga berilayotgani, trendbop voqeliklarni bo‘rttirib, beparda aks ettirayotgani achinarli. Nafaqat achinarli, balki kishini xavotirga ham soladi.

Telenovellalar kecha yoki bugun paydo bo‘lgani yo‘q. Bu telejanr aslida serialga uyg‘un tarzda Lotin Amerikasida chiqarilgan to‘liq syujetli teleserial hisoblanadi. U 1950-yillarda paydo bo‘lgan va bora-bora Lotin Amerikasi mamlakatlarida televideniyening asosiy janriga aylangan. Telenovella formati serialga o‘xshab ketsa-da, xilma-xil syujetlar va turfa qahramonlar taqdirini ko‘rsatib berishi bilan Amerika seriallaridan farq qilgan. Amerika telenovellalarida ham ko‘pincha er-xotin va ularning oilaviy hayoti syujetning asosini tashkil etgan. Bundan tashqari, telenovellalarning cheklangan translyatsiya muddati taxminan olti oyni tashkil qilgan va epizodlar soni 180 dan 200 tagacha o‘zgarib turgan. Mabodo reytingda muvaffaqiyat qozongan taqdirda bu raqam yanada ko‘paygan.

1950 va 1960-yillardagi telenovellalar asosan romanlar yoki boshqa adabiy asarlarning ekranga moslashtirilgan talqini bo‘lib, faqat bir nechta Lotin Amerikasi dramaturglarigina telenovellalar uchun original hikoyalar yozib berishgan. 1960-yillarning oxiriga kelib, prodyuserlar telenovellalarni suratga olingan mamlakatning madaniy muhitiga bog‘liq qilib, original ssenariylar yarata boshlagan. O‘sha yillarda Lotin Amerikasida faqat telenovellalar ishlab chiqaruvchi maxsus televizion tarmoqlar tuzilib, ular butun dunyoga o‘z mediamahsulotlarini eksport qilishgan. 2018-yilga kelib, butun dunyoda telenovellalarning mashhurligi pasaya boshladi. Bizda esa shu vaqtga kelib ular ommalashdi. Bugun ularning soni kundan kunga ko‘payib bormoqda. Sir emaski, hozirda telenovellalarga xususiy telekanallarning asosiy reytingbop dasturlari sifatida qaralmoqda.

Xususan, “Milliy” telekanalida “Iqror”, “Zo‘rTV” telekanalida “Saboq”, “Taqdirlar iskanjasi”, “Sevimli” telekanalida “Taqdirlar”, “Mening yurtim” telekanalida “Vo ajab” kabi turkum telenovellalar taqdim etilmoqda. Bu mediamahsulotlar asosan praym-taym vaqtida namoyish etiladi. Bu aynan odamlar dasturxon oldiga kelib, televizor qarshisiga joylashgan paytga to‘g‘ri keladi.

Telekanallar ushbu novellalarni efirga uzatishdan tashqari, ularni o‘zlarining “YouTube” ijtimoiy tarmog‘idagi kanallariga ham joylab borishadi. Eng ko‘p e’tirozga sabab bo‘ladigan jihat, aynan shu asarlarning “YouTube”dagi sarlavhalari bilan bog‘liq ekanini aytish lozim. Gap shundaki, bunday telenovellalar ko‘proq ko‘rilishi, odamlarni jalb etishi uchun na etika, na mantiqqa to‘g‘ri keladigan nomlar bilan joylashtiriladi. Biz maqolani yozish chog‘ida “YouTube” tarmog‘iga qo‘yilgan ushbu telenovellalarni qayta ko‘rib chiqdik va “kishi diqqatini tortadigan” nomlardan ba’zilarini sizga ham havola qilishni lozim topdik. Masalan, “Iqror” telenovellasining turli qismlari “Teng tengi bilan...”, “Shilqim qaynota”, “Kuyovning mebeliga kelinning pardasi mos kelmadi”, “Do‘stimning ayoli menga yoqadi”, “Erga tega olmayotgan qiz”, “Onasi tanlaganiga uylangan yigitlar to‘ydan keyin boshqa qizni sevib qolishsa nima qilish kerak?”, “Ovsinimning nayranglari”, “O‘g‘ri qizlar”, “Qo‘shnimning xotinini sevib qoldim”, “Begona kelin” va hokazo nomlar bilan atalgan.

“Sevimli” telekanalining “YouTube”-dagi sahifasiga “Taqdirlar” telenovellasining turli qismlari “Qizini pullagan ota”, “O‘g‘ri kelin”, “Mahr mashmashasi”, “Otasini o‘ldirgan narkoman o‘g‘il”, “Ziqna qaynonam o‘zini o‘ldirdi”, “Ikkinchi eridan baxtini topgan ayol”, “Erimga mehr berishni kundoshimdan o‘rgandim”, “Alkash ota qizini...” kabi nomlar bilan joylashtirilgan. Yoki yaqindan “Zo‘rTV” telekanalida efirga berilayotgan “Taqdirlar iskanjasi” telenovellasi sonlariga “Pochcham meni zo‘rladi”, “Kelinim meni o‘qitgan”, “Ovsinimni o‘ldirdim”, “Ko‘chadagi ayollarning makri”, “Irimchi qudalar”, “Qimorga tikilgan qiz”, “Kelinimdan jirkanaman”, “Qaynonam aktrisa ekan” kabi sarlavhalar qo‘yilgan. Avvalroq namoyish etilgan “Saboq” telenovellasining qismlari esa “Go‘zalligiga aldangan qiz”, “Kelinini o‘ldirib qo‘ygan qaynona”, “O‘z uyimdan quvildim”, “San’atkorni xo‘rlagan qaynona”, “Qayniukam tegajog‘lik qildi”, “Otam meni boyga pullamoqchi”, “Bir uyda ikki kundosh”, “O‘lgan erim qaytib keldi” kabi nomlar bilan “YouTube” sahifasiga joylashtirilgan. Afsuski, ular 500 ming, 1 million, ba’zilari 2 milliondan oshiqroq tomosha qilingan.

Balki telenovellalar ijodkorlarining niyati ezgudir, ular o‘zlari tasvirga olgan telenovellalar orqali odamlarni egri yo‘ldan qaytarmoqchi, to‘g‘ri yo‘lga burmoqchidirlar. Lekin bu kabi mavzular, hayotni bu qadar tubanliklar va jirkanch manzaralar bilan to‘lib-toshgan odamlar ham bordir. Lekin shukrki, ular barmoq bilan sanarli darajada kamchilikni tashkil qiladi. Shuncha ezgulik turganda bir siqim tubanlikni namoyish qilish qanchalik to‘g‘ri?

Telenovellalarga xos umumiy jihatlarni sanab o‘tsak: ularning har birida xiyonat mavzusi bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. Er hamisha xiyonat qiladi, kelin va qaynona hamisha o‘zaro jiqqamusht bo‘ladi. Odatda, qaynona juda badfe’l, qahri qattiq qiyofada tasvirlanadi. Ovsinlar hech qachon kelishmaydi, ular nuqul aka-ukalarning orasini buzadi. Bunday lavhalarda mehr-oqibat degan ezgu tuyg‘ularni deyarli uchratmaysiz. Ikkinchi xotin va kundosh mavzusi ham uzoq “chaynaladigan” saqichga aylanib bo‘ldi. Nahotki, bunday “teleasarlar” ijodkorlari o‘zbek xalqini faqatgina ana shunday mayda va tuban illatlar “sohibi” sifatida tasavvur qilishsa? Ochig‘i, bunday telenovellalar kurakda turmaydigan mavzulari bilan tomoshabinning nafaqat qimmatli vaqtini o‘ldirmoqda, balki ularning ongi va qalbini ham zaharlamoqda. Axir, bu kabi jirkanch voqealarni hadeb ko‘rsataverish bora-bora tomoshabinda istalgan tubanlikka odatiy hol sifatida qarashdek loqaydlikni paydo qilmasligiga kim kafolat beradi? Hatto, umrida biron marta yomonlikka qo‘l urmagan insonga har kuni “yomonsan” deyaversa, o‘sha inson o‘zining yomonligiga ishonib qolishi hech gap emas.

Ehtimol, xususiy telekanallar bu kabi arzon xaypga o‘chligiga moddiyatni ro‘kach qilib keltirishlari mumkin. Lekin dunyoda moddiy manfaatdan ko‘ra yuksakroq tushunchalar bor. Bu – millat ma’naviyati va tarbiyasi masalasi. Bunday yuksak tushunchalarga bepisandlik ertaga yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy bejiz “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo falokat, yo saodat – yo halokat masalasidir”, deb yozmagan edi. Zotan, televideniye ijodkorlari ham shu millatning ma’naviyati uchun mas’ul bo‘lgan insonlar! Telekanallarimiz tomoshalar soni uchun emas, sifat uchun, millat ma’rifatini yuksaltirish, badiiy didini oshirish uchun harakatni qachon boshlaydi? Axir, xalqimiz qachongacha odam o‘ldirish, xotinini pichoqlash, erini zaharlash, ikkinchi xotin, johil qaynona, qotil kelin kabi maishiy, tuban mavzularni tomosha qilishi kerak?

Televideniye tomoshabin ortidan ergashishi emas, balki sifatli va yuksak saviyali kontentlari bilan tomoshabinni o‘zining ortidan ergashtirishi lozim. Haqiqiy professional ijodkorlarning qat’iy prinsipi bo‘lishi kerak. Agar faqat moddiy maqsad bilan yashayversak, millat ma’naviyatini boy beramiz. Yoshlarning tarbiyasi, oriyat, nomus, uyat, andisha kabi tuyg‘ularni yo‘qotamiz. Muhtaram Prezidentimiz o‘tgan yilning 22-dekabrida bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida “milliy kontent” masalasi haqida bejiz to‘xtalmadi. Biz tezroq xalqimiz uchun manfaatli bo‘lgan, millatimiz dunyoqarashi va ma’naviyatiga foyda keltiradigan milliy kontentlar yaratish ustida bosh qotirishimiz lozim.

“Ommaviy madaniyat”, chet elning buzg‘unchi g‘oyalariga qarshi kurashishimiz kerak deymiz. Lekin o‘zimizning “oyinai jahon”da namoyish etilayotgan buzuq g‘oyali, millat ma’naviyatiga mos kelmaydigan telenovellalardan keladigan xavf ham ulardan qolishmaydi. Telekanallarimizda namoyish etilayotgan telenovellalarning badiiy saviyasi, mavzular mundarijasi xususida jiddiy o‘ylab ko‘rish payti allaqachon kelgan. Mazkur masalaga asosiy yechim sifatida telekanallar qoshidagi Badiiy kengashlar faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, ularning jiddiy ish olib borishini ta’minlash zarur. Badiiy kengashlar tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Kinematografiya agentligi, Yozuvchilar uyushmasi hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazidan malakali mutaxassislar va ekspertlarni jalb qilish lozim. Bugun jamiyatga kerakli, hammaga birday manfaatli mediamahsulotlar yaratish uchun barcha ziyolilar birday javobgar va shu millat ma’naviyatiga hammamiz mas’ul ekanimizni unutmasligimiz kerak.

Kamoliddin TO‘RAYEV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Avazbek SHERMATOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi

Yaxshi do‘stga bergil non-u shakaring



AJINIYOZ

URUG‘IM – QO‘NG‘IROT

Urug‘im – qo‘ng‘irot, millatim – qalpoq,
Kenagas, mang‘it-u xitoy-u qipchoq,
Tug‘ishgan deydilar qalpog‘-u qozoq,
O‘n to‘rtga bo‘lingan urug‘im bordir.

Bir eli – Xorazm, bir eli – Turon,
Urganch-u, Qo‘ng‘irot, shahri Samarqand,
Karvonlari borur Buxor, Ashtarxon,
Qancha suluv-suluv shaharim bordir.

Ko‘pdan ko‘ra ko‘rkam yurtim dalasi,
Qavat-qavat, baland shahr-u qal’asi,
Ko‘pkari-uloqqa kengdir orasi,
Ko‘pkar-uloq o‘ynar yigiti bordir.

Bizning elni o‘n to‘rt urug‘ deyarlar,
Qiz-juvoni qizil-yashil kiyarlar,
Hayit-to‘yda ot-arvaga minarlar,
Ne bir suluv-suluv qizlari bordir.

Qiz-yigiti javob aytar basma-bas,
Kiygan kiyimlari atlas-u libos,
Poyiga to‘shaydur mashhadiy palos,
Shohsanam, Shirindek qizlari bordir.

Kotiblari olar kitob-qalamin,
Bir-biriga berar Tangri salomin,
Xoja Hofiz, Navoiydan sabog‘in
Olgan necha mulla-tolibi bordir.

Uch oy chavog‘i bor, uch sog‘ini,
Uch oy qavog‘i bor, uch oy qovuni,
To‘rt faslga yetar aning taomi,
Ne bir shirin-shirin yemishi bordir.

Biri sutilmakdur, biri otcho‘qay,
Sobig‘in yesangiz, shirin asalday,
Jambulcha qovuni shirin pachakday,
Yilida uch pishar mevasi bordir.

Poytaxt yurtin derlar qadimgi Turon,
Izzat-hurmat bilan qiladi mehmon,
“Kelgindi” degan nom bizlarga yomon,
Xitoy, qo‘ng‘irot otli ellarim bordir.

Jayxun, Sayxun – ikki daryo orasi,
Tub naslimiz bir kishining bolasi,
Anas, Malik – ikki elning bobosi,
Nomi qoraqalpoq ellarim bordir.

Bizning yurtga erta kelur bahor-yoz,
Quv-quvlashib quvnab uchar oqqush-g‘oz,
Bul bayozni yozgan mulla Hojiniyoz,
Zevarning aylona ellari bordir.

BO‘LMAS

Kel-ey, ko‘nglim, bu dunyoga berilma,
Yolg‘onchining bir dam fursati bo‘lmas.
Oqil bo‘lsang, oxiratingni o‘yla,
Imondin g‘ayrining lazzati bo‘lmas.

Do‘stga to‘g‘ri kerak, dushmanga – hiyla,
Odamga mehr ber, nafsga qasd ayla,
To‘g‘ri yurgil, egri yurmagin bo‘yla,
Yolg‘onchi Rasulning ummati bo‘lmas.

Yaxshining bir so‘zi tiriklik toji,
Yomonning bir so‘zi zahardin achchi,
Zo‘r yigit dunyoning bo‘lsa qallochi[1],
Savashda g‘animga haybati bo‘lmas.

Yomonga so‘z aytsang, boqar iziga,
Quloq solmas yaxshilarning so‘ziga,
Besh-o‘n kishi ko‘p ko‘rinar ko‘ziga,
Yomonning yaxshiga suhbati bo‘lmas.

Yaxshiga yarashar izzat-u hurmat,
Do‘stlarga muruvvat, dushmanga haybat,
Hech ishga yaramas, tug‘sa beg‘ayrat,
Yaxshi zot puliga qiymati bo‘lmas.

Yaxshi ot yigitning ko‘nglini ochar,
Xotin yomon bo‘lsa, obro‘ying qochar,
Necha pand aylasang, yo‘liga ko‘char,
Yomonning yaxshiga hurmati bo‘lmas.

Yomon zandin ko‘ngling do‘nar har yona,
Yaxshi zan ko‘z suzmas kelgan mehmona,
Tug‘magan o‘g‘uldan tug‘gan begona,
Pul berib olsang ham foydasi bo‘lmas.

Yaxshi do‘stga bergil non-u shakaring,
Qaytarmas so‘zingni, bo‘lsa keraging,
Ul nomardga kunda bergan xo‘raging
Kuningda bir pulcha minnati bo‘lmas.

Bevafodir dunyo, so‘ngi puch bo‘lur,
Ajal yetsa, bir kun ko‘cha-ko‘ch bo‘lur,
Zevar aytur, aqlsizga hech bo‘lur,
Yomonning yaxshiga suhbati bo‘lmas.

MENGZAR

Xayol qilsam, mening ko‘nglim
Egarlangan otga mengzar,
Bir do‘stingning ko‘ngli qolsa,
G‘alat yozgan xatga mengzar.

Ey xaloyiq, o‘ylab qara,
Totuvlashar kam-kam ora,
Do‘st bo‘lsangiz yaxshi yora,
Umring gulistonga mengzar.

Iching to‘lar nomus-orga,
Ko‘ngil bermas ro‘zig‘orga,
Ishing tushsa fe’li torga,
Qafasga tushganga mengzar.

Ipak fe’lli qaddi nihol,
So‘zi shakar, labida bol,
Qo‘lingga tushsa bir go‘zal,
Hayoting xushhola mengzar.

Iching to‘lsa armon-sher[2]ga,
Ko‘ngling mengzar qora yerga,
Yomon xotin yaxshi erga
Tuganmas tuhmatga mengzar.

Zo‘r yigit bo‘lsa hamroying,
Ne qayg‘ung bor, ne parvoying,
Guliston ko‘ngil saroying
Qish kunlari yozga mengzar.

Pulli bo‘lsa kasb-u koring,
Dushmanlardan o‘nar oring,
Hamma sening do‘sting-yoring,
To‘rt yoning qiblaga mengzar.

Anglasam aql-o‘yimni,
Dunyoning yo‘qdir to‘yimi,
Ozoda qizlar qo‘yini
Jannatning bog‘iga mengzar.

Obodondur o‘nging-so‘ling,
Yetadi har yerga qo‘ling,
Bo‘lsa shiddatli mard uling
Ko‘ngling baland tovga mengzar.

Olis-yaqinni bilmasa,
Iynida[3] ko‘zga ilmasa,
Tegishli haqing bermasa,
Og‘ayining yovga mengzar.

Sir sochmas odam donosi,
O‘rinlanar so‘z sarasi,
Yomon qo‘shnining orasi
Kunda janjal-dovga mengzar.

Ko‘kka yetar chekkan nolang,
Vayron bo‘lar jigar-xonang,
Ahmoq bo‘lsa tug‘gan bolang,
Umring zimistonga mengzar.

Ey xaloyiq, quloq soling,
Buyurgani mulki-moling,
Ko‘nglingdan chiqsa ayoling,
Behisht g‘ilmoniga mengzar.

Tug‘ishganing bo‘lsa fosiq,
To‘g‘ri bilmas, juda jasiq[4],
Olish-berish yo‘q, siylashiq,
Tug‘ishganing yotga mengzar.

Xaloyiqqa ko‘z solmasa,
Og‘a-inni tanimasa,
Bolang tilingni olmasa,
Iching yongan o‘tga mengzar.

Yaxshida alam-kek bo‘lmas,
Bir yomonlik yoddan qolmas,
Hech kim ayab, nazar solmas,
Iching yongan o‘tga mengzar.

Xalqqa mashg‘ul toshqin davlat,
Hech kimga bo‘lmagan ulfat,
Qilmagan xayr-saxovat
Mevasiz bir tolga mengzar.

Arosat chil-chil xunoba,
Qilmasa haqqingga duo,
Masala aytmagan ulamo,
Suvi yo‘q arnaga mengzar.

Egaman deb zo‘r atoqqa,
Oti taniqli elatga,
Yoyilmasa so‘zi xalqqa,
Shoir ko‘hna tomga mengzar.

Odam o‘g‘li – bori odam,
Hallos urg‘il, ko‘nglim, shodlan,
Fazilat bilmagan nodon,
To‘rt oyoqli molga mengzar.

MAYDON ICHINDA

Yaxshi yigit kurash kuni
Sinalur maydon ichinda.
Mard bilan nomardning farqi
Bilinur maydon ichinda.

Bo‘lib o‘z ishingga puxta,
Bedovdan ayirma no‘xta,
Nomard qulog‘i kar, luqma
Eshitmas maydon ichinda.

Qayg‘u, mehnat bo‘ldi yorim,
Chiqmas ko‘ngildan g‘uborim.
Kecha-kunduz oh-u zorim,
Qolibman hayron ichinda.

Kezdim g‘ariblik yo‘linda,
G‘arq bo‘lib hijron ko‘linda,
Yusufdek Misr elinda
Qolibman zindon ichinda.

Alloh soldi har xil yo‘la,
Har kimsadan qilmang gina,
Majnun kabi chiqib cho‘la,
Qolibman giryon ichinda.

Ko‘p savdo kechdi boshimdan,
Sel bo‘ldi ko‘zlar yoshimdan,
Ayrilib tengi-to‘shimdan,
Qolibman hijron ichinda.

Shabang[5] minib, changda qolma,
Ikki berib, birin olma,
Bevafoga ko‘ngil solma,
Qolursan armon ichinda.

G‘arib Zevar, qilma giryon,
Haq o‘zi bo‘lgay mehribon,
Qucharsan hur ila g‘ilmon
Jannat-u rizvon ichinda.

QADR

Havoda uchgan bo‘z qushlar
Ne bilsin ko‘lning qadrini,
Tog‘ boshida yurgan maral
Ne bilsin cho‘lning qadrini.

Yaxshi-yomonni ko‘rmagan,
Bek bo‘lib davron surmagan,
Gulning tozasin termagan,
Ne bilsin gulning qadrini.

Sevgi sharobin ichmayin,
Shirin jonidan kechmayin,
Yurtidan ayro tushmayin,
Ne bilsin elning qadrini.

Bulbul fig‘on etgan bog‘lar,
Oshiq bo‘lgan tinmay “oh”lar,
Ko‘kni kezgan qarg‘a-zog‘lar
Ne bilsin gulning qadrini.

Ustimizdan o‘tgan oylar,
Tushdi bugun oh-u voylar,
Alanglab yurgan haloy[6]lar
Ne bilsin so‘zning qadrini.

Oh chekib bag‘rin so‘kmagan,
Ko‘zidan yoshin to‘kmagan,
Achchiq-chuchukni totmagan
Ne bilsin bolning qadrini.

Yor bila birga yotmagan,
Shirin labidan totmagan,
Nozik belidan tutmagan,
Ne bilsin qo‘lning qadrini.

Zevar, ajabdur zamonlar,
Qani bundog‘ qadrdonlar,
O‘zin bilmas qiz-juvonlar
Ne bilsin yorning qadrini.

BO‘LURMI?

Vale ko‘nglum, har joylarda do‘lanma,
Har joy demak bilan imkon bo‘lurmi?
So‘zlaganda so‘zning farqin bilmagan,
Odam demak bilan inson bo‘lurmi?

Yigit kerak so‘z o‘rnida so‘zlasa,
Har kimga sir bermay, orin ko‘zlasa,
Qadrin bilur bir qadrdon izlasa,
Qadrin bilmas joyga mehmon bo‘lurmi?

Alloh bersin bandasining murodin,
Karam-ul kotibi yozarlar xatin,
Barchani yaratgan qodir Xudodin
Inoyat bo‘lmasa, sulton bo‘lurmi?

Zo‘r yigitga obro‘ kerak, mol kerak,
Murshidlarga botin kerak, hol kerak,
Oxirat istasang, to‘g‘ri yo‘l kerak,
Ko‘ngil xush etmasa, giryon bo‘lurmi?

Zo‘r yigitning oti-to‘ni shay bo‘lsa,
Olgan yori aqli o‘ziga tay bo‘lsa,
O‘g‘li-qizi bo‘lib, yana boy bo‘lsa,
Yolg‘onchi dunyoda armon bo‘lurmi?

Yaxshi fahm ayla so‘zlagan so‘zdin,
Yomonning farqi yo‘q, ko‘z bila yuzdin,
Odobsiz, hayosiz befahm qizdin
Xushro‘y bo‘lmoq bilan jonon bo‘lurmi?

Zevar aytur, Alloh, o‘zing shod ayla,
Otim-to‘nim, ko‘ngil xushim bor ayla,
Qo‘l-oyog‘im, boshim, ko‘zim sog‘ ayla,
Mendin g‘ayri darda yongan bo‘lurmi?

YANGLIG‘DIR

Og‘alar, yorimning ta’rifin aytsam,
To‘bi og‘och aning qaddi yanglig‘dir,
Xulqi, fe’li, hol-u ahvolin aytsam,
Misli Majnun suygan Layli yanglig‘dir.

Beklar, ta’riflasam kezgan elatni,
Ul elda ko‘rmisham bir parizotni,
Boqsam oy yuziga – atir, oy betli,
Jannatning ravoqida to‘ti yanglig‘dir.

Bersam kam bo‘lgay bu dunyo barisin,
Hurlar tenglasholmas, aytsam ta’rifin,
Bayon etsam aning ismi-sharifin,
O‘tgan bir yaxshining oti yanglig‘dir.

Ani o‘z suni’ydin yaratgan Subhon
Yuzi o‘n to‘rt kunlik oydek namoyon,
Ko‘rgan bexush bo‘lar ani shul zamon,
Sayl qilib behishtdan chiqqan yanglig‘dir.

Qand-u novvot, shahd-u shakar oshlari,
Qunduzdan qoradur aning qoshlari,
Zehn etsang, aning qalam qoshlari
Kotib qalam bilan yozgan yanglig‘dir.

O‘tirishi – turna, yurishi – g‘ozdur,
Boshdan oyoq tamomi a’zosi nozdur,
Xushsurat, xushodob, bir olg‘ir bozdur,
Boqishi misoli lochin yanglig‘dir.

Zoye bo‘lar bevafoning yurgani,
Aysh-u ishrat, zavq-u safo surgani,
Bir kun olib ketsa molin bergani[7],
Misli qush qochirgan shahboz yanglig‘dir.

Zevar aytar, endi holing ne kechar,
Yo shu kun, yo tongda karvoning ko‘char,
Sog‘ bo‘lsang, boshingga ne savdo tushar,
Bevafo yor foniy dunyo yanglig‘dir.

YIGITGA NE KERAKDUR

Avval kunda zo‘r yigitga
Bir ajoyib ot kerakdur.
Mehmonga xizmat etmoqqa
So‘ngra qo‘l-qanot kerakdur.

Ot yo‘llar chopib oshganda,
Qilichdan qonlar sochganda,
Mard boshiga ish tushganda
Yigitga g‘ayrat kerakdur.

G‘animga qarshi borganda,
Dushmandan o‘chin olganda,
Omon-eson sog‘ kelganda
Yigitga murod kerakdur.

G‘ulpog‘i[8] beliga tushgan,
So‘zlaganda zehning ochgan,
Daryo kabi to‘lib-toshgan
Ajab o‘g‘il zot kerakdur.

BARCHA BIRDAY BO‘LGAN EMAS

Barcha odam tengday emas,
Sen qo‘ymagil yurtga havas,
Biri oqil, biri g‘ofil,
Barcha birday bo‘lgan emas.

Xudoga xosdir ilmi g‘ayb,
So‘z aytding bizga ajoyib,
Banda yo‘qdur hech beayb,
Bir Xudoda yo‘qdur ayb.

So‘zing nayza sifat o‘tar,
O‘z boshingga so‘zing yetar,
Qancha o‘zing bilgich bo‘lsang,
Bir bilmaslik nega o‘tar.

Ul ajalni ko‘rib bo‘lmas,
Oldin payqab, bilib bo‘lmas,
Barcha maxluq birday emas,
Bilmasga ozor berib bo‘lmas.

Birovda bor bitgan aql,
Yuqmay ketar surtgan aql,
O‘yidagin bilib bo‘lmas,
Burungidan qolgan naql.

Qoraqalpoq tilidan
Rustam MUSURMON ag‘dargan.

---

[1]Qallochi — bechora, kambag‘al.
[2]Sher – qayg‘u-hasrat.
[3]Iynida – payti kelganda.
[4]Jasiq – zaif, qat’iyatsiz, irodasiz.
[5]Shabang – chopolmaydigan ot.
[6]Haloy – ayol.
[7]Molin bergani – kuyov bo‘lmish yigit.
[8]G‘ulpoq – o‘g‘il bolalar kokili.



MA’RIFATLI KISHILAR

Ozar qardoshlar qutlovi

Professor Hamidulla BOLTABOYEVning 70 yoshi munosabati bilan

Badirxon AHMADLI,
filologiya fanlari doktori,
professor



Agar o‘tmishdan ko‘r-ko‘rona voz kechib, ertangi kunga faqat bugunning nazari bilan qaralsa, uzoqqa borish dargumon. Umumturk kontekstida fikr yuritish va kelajakni shu yo‘nalishda qurish bizni dunyo xalqlari orasida yetakchi o‘ringa olib chiqishi mumkin. Bu ma’noda turk xalqlarining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va adabiy integratsiyalashuvi muhimdir. O‘z-o‘zidan ikkinchi masala o‘rtaga chiqadi: bir asr avval o‘rtaga qilich qo‘yib, ajratilgan turkiy xalqlarning birligini tiklash uchun olimlarning aniq yo‘l xaritasi bormi?! Turkiy ziyolilar imkon qadar keng fikr yuritmog‘i, tor, mahalliy qobiqlardan chiqmog‘i, o‘tmishda g‘oya sifatida ilgari surilgan, bugungi kunda dolzarbligi bilan oldimizda turgan “Tilda, fikrda, ishda birlik” formulasini hayotga tatbiq etmoqlari kerak. Shundagina kerakli ijtimoiy-siyosiy natijaga erishish mumkin.

O‘z vaqtida H.Zardabi, I.G‘asprali, A.Huseynzoda, A.Ag‘ao‘g‘li, Z.Go‘yalp kabi olimlar tomonidan kun tartibiga qo‘yilgan turk birligi bugun ham yangi qiyofalar bilan davom ettirilishi lozim. Bugungi kunda bunday g‘oyalarga ega odamlar kam va ular yangi turk integratsiyasida muhim ahamiyatga ega. Ana shunday kamyob olimlardan biri O‘zbekiston Milliy universiteti professori Hamidulla Boltaboyevdir. Jonkuyar jadidchi og‘amiz shu kunlarda yetmish yoshni qoralab boryapti.

Yaqinda O‘zbekistonga tashrifim chog‘ida professor Hamidulla Boltaboyev turkiy xalqlar integratsiyasiga oid aniq konsepsiyaga ega ekanligiga yana bir bor amin bo‘ldim. Bu konsepsiya XX asr boshida turk ziyolilari tomonidan ilgari surilgan yo‘l xaritasiga katta hissa bo‘lib qo‘shilishiga ishonaman. Nafaqat konsepsiya sifatida, balki amaliy qadamlar qo‘yish orqali ham bu ish oldinga siljishi mumkin. Bugun O‘zbekistonda boshlangan yangi jadidlik harakatida uning o‘rni kam emas.

2021-yili ustozning Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institutida magistr va doktorantlar uchun “O‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi” mavzusida o‘tkazgan mahorat darsi o‘zbek-ozarbayjon filologiya fanini yaqinlashtirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Domla boshqa turk xalqlari, jumladan, Turkiya bilan ilmiy integratsiyalashuv yo‘lida anjumanlar, mahorat saboqlari tashkil etishni eng yaxshi vosita deb bilayotir. O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan anjumanlar mavzulari mushtarak turkiy fikrni ifodalagani bois ishtirokchilar ham turkiy xalqlarni imkon qadar ko‘proq qamrab olmoqda.

Olim faoliyatining ilk yo‘nalishi nazariy xarakterga ega va bu omil uning butun ijodini qamrab olgan. Ilk tadqiqotida u zamonaviy o‘zbek nasridagi uslub murojaatlarining nazariy ko‘rinishini taqdim etib, o‘zbek nasrini uslubiy jihatdan tahlil qiladi. 80-yillarda badiiy nasrni uslub jihatidan o‘rganish katta yangilik edi. Bu kabi izlanishlar Turkiya adabiyotida A.Hamdi Tanpinar, M.Kaya Bilgegil, Mehmet Kaplan, Berna Moran, Sharif Aktash kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida alohida o‘rin tutgan. Bizda esa 80-yillarda bunday tadqiqotlar yo o‘tkazilmagan, yoki kam e’tibor qaratilgan. Bu borada qahramonimiz 70-yillarda o‘zbek nosirlari qalamiga mansub asarlarning uslubiy xususiyatlari va uning o‘quvchiga ta’sir etish mexanizmlarini tushuntirib berdi.

Yangi uslublar haqida to‘xtalish esa sotsialistik realizmning mavjud usulidan voz kechishni anglatardi. O‘zbek nasrida ro‘y bergan ushbu adabiy voqea kelajakdagi yo‘nalishlarni belgilab berdi. Rus tanqidchilarining uslubga yo‘naltirilgan tadqiqotlariga o‘rin bergan tadqiqotchi milliy uslub atamasini va unga alohida ahamiyat berishni taklif qildi. “Milliy uslub” tushunchasiga o‘sha paytda yetarlicha ahamiyat berilmagani uni xavotirga soldi: “Sovet adabiyoti dunyosida har bir adabiyotning o‘ziga xosligi va mavjud uslub xususiyatlarini aniqlash, uni adekvat tarzda o‘rganishda kamchilik va nuqsonlar mavjuddir”. 20-30, 40-50-yillardan farqli o‘laroq badiiy uslub boshqa yo‘ldan ketishi kerakligini targ‘ib qildi. Tadqiqotchi bugungi adabiyotda o‘ziga xos nasriy uslub shakllanmoqda, degan fikrda edi. U metod iskanjasida qolgan uslubni qat’iyan qabul qilmay, sotsialistik realizm usuli o‘z uslublarini shakllantirishga imkon berishini oldindan bildi.

Sotsialistik realizm istilohining kelib chiqishi, paydo bo‘lishi va rivojlanish yo‘nalishlariga e’tibor qaratgan Hamidulla Boltaboyev bu usulni qo‘llashdan ko‘plab ulug‘ adiblar jabr ko‘rgan, ba’zi yozuvchilar esa undan foydalanganlar, degan xulosani himoya qildi: “Sotsialist realizm deyilmish zanjir, XX asr o‘zbek nasrining tamal toshini qo‘ygan Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon kabi buyuk adiblarni o‘z iskanjasiga oladi. Adabiyotimiz ulardan mahrum bo‘lgani kabi, 1930-1950-yillarning so‘nggida asar yaratgan eng yetakchi adiblarning ham ijod namunalarini-da oyog‘iga tushov bo‘ladi”.

Ozarbayjon adabiyotida ham ayni jarayonlar kechganini inobatga olsak, tadqiqotchining 80-yillarning avvalida qilgan bu dadil xulosasini qadrlamaslik mumkin emas. O‘zbek adiblaridan Shukur Xolmirzayevning “So‘nggi bekat” romani haqida so‘z yuritgan tadqiqotchi yozuvchi uslubidagi go‘zalliklarni barcha tafsilotlari bilan ro‘y-rost ko‘rsatadi. Uslubni shakllantirishda yozuvchi tilining, xarakterining, tasvir xilma-xilligining ahamiyatiga urg‘u qaratganda, u tamomila haq edi.

Hamidulla Boltaboyev tadqiqotlarining katta qismi XX asr avvalida sodir bo‘lgan umumturkiy jarayonlarga, bu jarayonlarda o‘zbek jadidlarining hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan. O‘zbek adabiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy tafakkurida vujudga kelgan jadidlik bir jarayon bo‘lib, harakat demakdir, bu novatorlar, ma’rifatparvarlar, yangilikshunoslar desa-da, bo‘lar (bularning barchasining zamiri aslida birlashishdir), ammo ularning eng yaxshisi o‘zbek tilida ifodalangan jadidlik, jadidizm termini bo‘lib, ulardan foydalanish yanada to‘g‘ridir. Shuningdek, tatar, boshqird, Turkiya turkchasida ham bu istilohdan foydalaniladi.

Professor Hamidulla Boltaboyev bu borada jadidlarning ilmiy-adabiy merosiga katta ahamiyat berdi va shu tariqa turkiy dunyoning mavjudligini saqlab qolishga harakat qildi. Chunki turk dunyosi yangilanishdan, ta’limga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirgandan so‘ng ozodlik hamda mustaqillik izlay boshladi. Ular hamisha oldinga qarab boqdi hamda umid quyoshining o‘zbek turkiylarining-da yuzida barq urajagiga ishondi, xalqni-da bunga ishontirdi. Jadidlarning esa eng atoqli namoyandalaridan biri jadid, maorifchi, shoir, davlat arbobi Abdurauf Fitrat (1886–1938) edi. Uning adabiy merosi sovet davrida nashrdan va tadqiqotdan chetda qolgani bois, Hamidulla Boltaboyevning ilk ishi uning asarlarini to‘plab, nashr ettirishdan iborat bo‘ldi.

1956-yili Fitratga nisbatan jinoiy ayblovlar olib tashlanganiga qaramay, uning asarlari haligacha oqlanmagani tadqiqotchini juda bezovta qildi. Undan “xalq dushmani” tamg‘asi olib tashlangan bo‘lsa-da, ijodi hali o‘zining munosib bahosini olmagan edi. Uning izlanishlari orqali Fitrat istiqlol g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi shoir, jadid, mutafakkir sifatida tanildi. 1990-yili “Yoshlik” jurnalida bu borada ilk marta “Noma’lum Fitrat” maqolasi bilan chiqish qildi. Shundan keyin Fitratning hayoti va ijodini qizg‘in tadqiq qilgan tadqiqotchi ilmiy jamoatchilik e’tiborini ham jadidlarga qaratdi. Bu tadqiqotlardan ma’lum bo‘ldiki, Fitrat XX asrning boshlarida Istanbulga ketib, u yerda she’r yoza boshlaydi.

Olimning asarlari Turkiya, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qozog‘iston va boshqa turkiy davlatlarning ilmiy nashrlarida chop etilgan. Jumladan, Ozarbayjon va Turkiyada olimni yaxshi tanishadi. Turkiyada “Nasr va uslub” (1992) va “Fitrat va jadidlik” (2019) asarlari nashr etilishi uning ilmiy tafakkuri O‘zbekiston sarhadlaridan-da oshganiga dalolatdir. Ushbu asarlar Turkiyaning ilmiy jamoatchiligi tomonidan o‘qilib, havolalar qilinadi. Aslida bizning Hamidulla Boltaboyev ijodiga nazar tashlashimizga shu ikki fundamental asar sababchi. Rossiya ilmiy nashrlarida ham uni yaxshi bilishadi va maqolalarini chop etishadi. “Sharq o‘rta asrlarida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining estetik merosi” maqolasi “Академические тетради” kabi nufuzli jurnalda nashr etilgan.

Hamidulla Boltaboyev bir qancha nufuzli ilm markazlarining a’zosi o‘laroq o‘z maslahatini berib kelayotir. Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti tomonidan u xorijlik “Yil olimi” nomiga loyiq ko‘rilgan. Rossiya Estetika va liberal san’atlar akademiyasining a’zosi hamdir.

Professor Hamidulla Boltaboyevning qarshisida bugun juda katta vazifa turibdi: ya’ni o‘zbek xalqining yanada ma’rifatli bo‘lishiga, turkiy xalqlarning yanada yaqinlashishiga hissa qo‘shish. Buning uchun aniq bir konsepsiyaga ega bo‘lish talab etiladi. Uning ilmiy eruditsiyasi, ilmiy tajribasi, turkiy xalqlarning o‘tmishini bilgan turkiy shaxs sifatida bu tushunchani hayotga tatbiq etishga salohiyati yetarli.

Bu missiya allaqachon boshlangan: O‘zbekistonda boshlangan zamonaviy jadidlik harakati yetakchilaridan, o‘zbek adabiyotshunosligining darg‘alaridan biri hisoblangan professor Hamidulla Boltaboyev umrining yetmishida turkiylik harakatiga o‘z hissasini munosib qo‘shmoqda. Biz-da bu yo‘lda unga zafarlar tilaymiz.

Bokuda nashr qilingan
“525-ci qazet”ning
2024-yil 7-iyun sonidan

Davronbek ORIPOV
tarjimasi.

AVAZ O‘TAR TAVALLUDINING 140 YILLIGIGA

XALQ DARDINI KUYLAGAN AVAZ

Avaz O‘tar asarlarida jadidlik g‘oyalari aks etgan va u doimiy ravishda Xorazm jadidlarini qo‘llab-quvvatlagan. Shoir 1884-yilda Xivada tug‘ilgan. Avazning otasi Polvonniyoz Gadoniyoz o‘g‘lining ajdodlari, xususan, otasi xon saroyida O‘tar lavozimida faoliyat ko‘rsatgan va o‘z davrining mashhur ijodkorlaridan Ogahiy, Komil Xorazmiy, Bayoniylar bilan do‘st tutingan. Shu bois Avazda ham bolaligidan ilmga, adabiyotga havas ruhi erta uyg‘onadi...

Til, hurriyat haqidagi asarlari bilan adabiyotda o‘ziga xos o‘rin egallagan Avaz sulola nomidagi O‘tar so‘zini o‘ziga taxallus qilib tanlagan. Tarixdan ma’lumki, O‘tar Xiva xonlarining xos sartaroshi bo‘lib, hukmdor va shahzodalarning soch-soqolini olgan, o‘g‘il bolalarni sunnat qilgan hamda shu faoliyati uchun xazinadan maosh olgan.

Avaz, dastlab, Xivadagi eski maktabda, keyin esa Madaminxon madrasasida tahsil oladi. Otasi va uning ijodkor do‘stlari ta’sirida Avaz madrasada o‘qib yurgan davridayoq Sharq adabiyoti mumtoz vakillaridan Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiyning ijodiga ixlos qo‘yib, ular bilan yaqindan tanishdi va she’rlar yoza boshladi. XX asr boshlariga kelib Avaz O‘tar xalq o‘rtasida tanilgan, she’rlari sozanda va xonandalar tomonidan kuyga solinib qo‘shiq bo‘la boshlagan edi.

Shoirning ustozlari Bayoniy, Tabibiy, zamondoshi Jumaniyoz Xivaqiy, do‘sti Hasanmurod Qori-Laffasiy va boshqalar uning iste’dodiga yuksak baho berishgan. Natijada Avaz O‘tar haqida bu xildagi ta’riflar Xiva xoni Muhammad Rahim soniy – Feruzxonga ham yetib boradi. Xon Avazni saroyga chaqirtirib, Tabibiyga shogird qilib topshiradi. Tabibiy juda ko‘p ilm ahliga g‘amxo‘rlik qilganidek, Avazga ham axloq va she’riyat bobida ko‘p narsa o‘rgatadi. Shuning uchun shoir turli davrlarda yozilgan she’rlarida Tabibiyni o‘ziga ustoz bilib, zo‘r hurmat bilan tilga oladi.

Ne g‘am emdi, Avaz,
nazm ilmida bo‘lsang Tabibiydek,
Ki derlar, ko‘rgan el nazmingni
ustodishta sallamno.

Afsuski, Avaz kamolotga yetgan bir paytda sil kasaliga chalinadi va davolanish uchun Kavkazga (1905–1906) boradi. U Kavkazga borayotib Bokuda biroz muddat bo‘ladi. Bokuda shoir Ozarbayjon jadid maktablari bilan tanishadi. Xususan, Tohirzoda Sobir singari shoirlar bilan uchrashib, do‘stlashadi. Ular bilan keyin ham ijodiy aloqada bo‘ladi. Sulton Majid G‘anizoda tomonidan tashkil etilgan maktablar faoliyatini o‘rganadi. Safarali Valibeyov (1861–1902)ning “Vatan tili”, “Usuli jadid”, “Lisoniy forsiy” nomli asarlari va “Xazinayi axbor” nomli ikki jildlik qomusiy lug‘atini, shuningdek, Rossiya, Kavkaz va Qrimda nashr etiladigan gazeta-jurnallarni ham Xorazmga olib keladi.

Kavkaz safari Avaz O‘tar ijodida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. U safar davomida Kavkaz xalqlari hayoti, madaniyati, adabiyoti bilan yaqindan tanishdi. Ozarbayjon xalqining ilm-fan, madaniyat yangiliklari bilan qiziqdi. U Xorazmdalik paytida ham rus, ozarbayjon, tatar tillarida chiqadigan gazetalarni muntazam ravishda kuzatib borgan. Toshkent, Farg‘ona va Samarqandda chop etilgan matbuot nashrlarida yozgan g‘azallaridan ba’zilarini chop ettiradi. Farzandini bosh vazir Islomxo‘ja tomonidan tashkil etilgan Xivadagi jadid maktabiga o‘qishga beradi.

Shoir ijodi juda ham rang-barang bo‘lib, qamrovi nihoyatda keng edi. U g‘azal, muxammas, mustazod, musamman, murabba’, mulamma’, tarje’band, soqiynoma, ruboiy, qit’a, fard kabi mumtoz adabiyot janrlarida ijod qildi. Avaz O‘tar 1919-yili 35 yoshda vafot etgan bo‘lsa-da, undan boy ijodiy meros qoldi. U hayotlik vaqtidayoq she’rlarini to‘plab devon tartib qildi va ularni “Saodat ul-iqbol” (“Baxtli iqbol”) deb nomladi. Shoir tuzgan devonlarini 1908-yilda xattot mulla Boltaniyoz Qurbonniyoz o‘g‘liga berib ko‘chirtirgan. Shoirning bu devonlari O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Uning g‘azallari Xivada litografiya usulida ham o‘zi hayot vaqtidayoq chop etilgan edi. Avaz O‘tar ijodidan namunalar Xorazmda ko‘chirilgan turli xil bayoz va tazkiralardan ham munosib o‘rin oldi. Shoirning asarlari “Oyina”, “Vaqt”, “Mullo Nasriddin” kabi o‘z davridagi vaqtli matbuot sahifalarida chop etilgan. Avaz O‘tarning Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Komil, Feruz va boshqa shoirlarning g‘azallariga bog‘langan taxmislari ham mavjud.



Ashxobod shahridagi Avaz O‘tar haykali.

Shoir Ozarbayjon adabiyotining buyuk siymosi Muhammad Fuzuliyning hur muhabbat va shaxs erkinligi masalasiga bag‘ishlangan “Yozmishlar” radifli g‘azaliga go‘zal muxammas bog‘laydi. Muxammasda shoir insonlarning baxtli bo‘lishi ijtimoiy tuzum bilan ham mustahkam bog‘liq degan xulosaga keladi.

Avaz O‘tarning hajviy asarlarida esa mustamlakachi va mahalliy amaldorlar, boylik orttirish yo‘lida aldamchilik, riyokorlik qiluvchi boylar, sudxo‘rlar va shularga o‘xshash razil shaxslarning qilmishlari fosh etilib, hajv qilingan.

Shoir ijtimoiy ruhdagi she’rlarida o‘zining ozodlik, baxtli hayot haqidagi qarashlarini bayon qilgan. “Hurriyat”, “Sipohiylarga”, “Xalq”, “Topar ekan qachon?” “Fidoyi xalqim”, “Ulamolarga” kabi qator asarlarida Avaz O‘tarning yorqin kelajak xususidagi fikrlari o‘z aksini topgan.

Avaz O‘tar ijtimoiy she’riyati zamirida zulm va zo‘ravonlik hisobiga to‘plangan boyliklarga nafrat, ikki tomonlama zulm ostida qolgan mehnatkash xalq hayotiga achinish tuyg‘usi yotadi. Shoir o‘sha jamiyatda yashab turgan kishilar o‘rtasidagi tafovutlarni, qarama-qarshiliklarni ro‘y-rost ochib tashlaydi.

Tarixdan ma’lumki, Rossiya imperiyasining birinchi jahon urushiga qo‘shilishi, mustamlaka xonlikdagi vaziyatni og‘ir ahvolga keltirdi. Natijada mehnatkash xalq ahvoli battar og‘irlashdi, soliqlarning ko‘pligidan xalqning tinkasi quridi. Avaz O‘tar qiyin ahvolga tushib qolgan xalq hayotini ko‘rib qattiq achinadi:

Yo‘q jahon mulkida bizdek
ojiz-u bechora xalq,
Zulm tig‘i birla bo‘lg‘an
bag‘ri yuz ming pora xalq…
Ey, Avaz, bo‘lmas,
shuningdek, barho ovora xalq.

Avaz O‘tar og‘ir kasal bo‘lgani bois shu davrdagi jadidlarning siyosiy kurashlariga qo‘shilmagan. Biroq u ma’nan jadidlarni qo‘llab-quvvatlab, “Maktab”, “Til”, “Xalq” nomli she’rlar yozgan. Ayniqsa, 1917-yil aprelda Bobooxun Salimov, Husayinbek Matmurodovning “Idorayi marshrutiya” – parlament tuzishini erkinlik yo‘lidagi qadamlardan, deb bildi va “Hurriyat” nomli she’r yaratdi.

Siyosat mahv bo‘ldi,
yashasun olamda hurriyat,
Bori el ittifoq ila
jahonni aylasun jannat…

Xiva shahrida ma’rifatparvar, jadidlik g‘oyalarini kuylagan Avaz O‘tarning uy-muzeyi tashkil etilgan va haykali, byusti o‘rnatilgan. U haqda Erkin Samandarning “Erk sadosi” dostoni, Ahmad Bobojonning “G‘azal fojiasi” dramasi, Sa’dulla Siyoyevning “Avaz” nomli romani yaratilgan. N.Qobulov, V.Mo‘minova, Ibrohim Haqqul tomonidan “Avaz va uning adabiy muhiti” nomli monografiya, Nurmuhammad Qobulovning ikki jildlik “Xorazm adabiy muhiti” to‘plamida ham Avaz O‘tarning hayoti va ijodi yoritib o‘tilgan. Ma’rifatparvar shoir hayoti va ijodi bo‘yicha filologiya, pedagogika yo‘nalishlarida bir nechta dissertatsiyalar himoya qilingan. Biroq tarix fanida hali Avaz O‘tarning hayoti, faoliyati to‘liq tadqiq qilinmagan.

Umid BEKMUHAMMAD,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

HASRATLI BITIKLAR

yoki XX asrning 20-yillaridagi “Oziq ishlari”dan chiqarilgan xulosa

Boshlanishi 1-sahifada.


Deylik, shunda Abdulla Qodiriy biografiyasida uchraydigan “Oziq ishlari” (“Eski Toshkand oziq sho‘basining nashri afkori”) gazetasi ham o‘sha tarixdan joy oladi.

Gazetaning birinchi soni 1918-yil 15-mayda chop etilgan. Haftada bir marta bosilgan gazeta “Eski Toshkand arzoq kamiteti ishlari” deb nomlanadi. “Arzoq” so‘zi “rizq”ning ko‘pligi, ma’no va talaffuz jihatidan “oziq”qa yaqin turadi. 1919-yil 7-yanvar 25-sonidan boshlab, gazeta nomi “Oziq ishlari” deya o‘zgartirilib, ikki haftada bir marta chiqa boshlaydi. Gazeta nomi o‘zgarib turgani uchun ilmiy adabiyotlarda uning nomlanishidagi “arzoq” va “oziq” so‘zlari ba’zan aralash keladi. Nashri qachongacha davom etgani ma’lum emas. Biroq nodir fondda saqlanayotgan ushbu gazetaning 1918-yil may oyidan 1919-yil iyuligacha chop etilgan o‘ttiz yettita soni saqlanadi. Gazetalar jamlanma jildining ich muqovasida shunday muhim bir yozuv bor: *“Ushbu “Oziq ishlari” gazetasi 1-nchisidan 9-no‘marasigacha Abdulla Qodiriy (Julqunboy) tahriri ostida nashr bo‘ldi. Men 5-no‘marasidan boshlab tarjimon o‘laroq ishladim. So‘ngra 9-no‘marasidan boshlab... (o‘qish qiyin-B.K.) oxirigacha birgina o‘zim tahririm ila nashr etildi. Mendan boshqa odam ishlagan yo‘q. “Oziq ishlari” gazetasi muharriri Habibullaxo‘ja Orifxo‘jayev”.*

Gazetada berilgan ayrim maqolalarni ruschadan o‘zbek tiliga Habibullaxo‘ja Orifxo‘jayev tarjima qilgan. Shuningdek, gazetada uning “Habibullaxo‘ja” imzosi bilan yozilgan maqolalari ham bor. Taxminimizcha, aynan Habibullaxo‘ja Orifxo‘jayev gazeta taxlamlarini kutubxonaga o‘z qo‘li bilan topshirgan. Ammo gazetalar kutubxonaga qaysi yili qabul qilingani aniq emas.

Gazetani varaqlay boshlayman. 1918-yil 6-iyun sonida “M.Abdulla Q.” imzosi bilan “Eski shahar oziq kamitetining o‘n bir oylik hisobi munosabati-la” degan maqola uchraydi. So‘ngra ikkinchi, uchinchi maqolalarga duch kelaman. H.Orifxo‘jayevning haligi qimmatli ma’lumotidan bir entikkan odam ahvolini endi tasavvur qiling. To‘g‘risi, Qodiriy maqolalariga yo‘liqqan odam ichki tuyg‘u va taxminlari to‘g‘riligidan tillo topgandek quvonadi. Tarixning fojialarga to‘la bo‘lgan ocharchilik davrini aks ettirgan bu qimmatli manbalar haligacha nima sababdan o‘rganilmay chang bosib yotganidan o‘kinasan ham.

Birinchi maqoladan o‘qiymiz: *“Xalq o‘n bir oydan beri qanoatlanurlik darajada oziq ololmaganidan va oziq kamitetining ishsizligidan oziq kamitetiga yaxshi qaramay ishonchsizliklar bildirib kelmoqda edi... Oziq kamiteti xalqqa eng zarur oziqlarni va boshqa nimarsalarni arzon baho ila yetkurib bermoqni o‘z zimmasiga oluvchi bir tashkilot ekanligi hech kimga yashirin emas. Binoan alayh har bir oziq tashkilotiga mutasaddi bo‘luvchi zotlarning mazkur jihatlarga rioya qilib ish ko‘ruvlari, albatta, lozimdir...”*



Biroq xalqning og‘ir ahvolini yaxshilashga qaratilgan bu ijtimoiy-iqtisodiy qo‘mita yaxshi ishlamaydi. Muallif sababini yozadi. Birinchidan, “Vatanimizdagi kun bakun bo‘lib turgan tartibsizliklar, o‘zaro urushlar boshlanib, yo‘llarning to‘xtaluvi Turkistonga tayinlangan oziqlarni o‘z vaqtida yeta olmovi bo‘lsa kerak”. Ikkinchidan, “bosh taqsimiylarimizning arzimagan bahonalar ko‘rsatib, eski shahar xalqining o‘z nufusiga loyiq hissa bermovlaridir... Yo‘l buzilib g‘alla keluvi to‘xtagan vaqtlarda eski shahar xalqi shishib o‘lmoqg‘a majbur bo‘lur, ammo topilgan oziqlarning barisi yolg‘uz (ayovlik) Rusiya dahasiga berilgan vaqtlar ham bo‘lur edi. Bosh taqsimiylar “garchi achchig‘ bo‘lsa ham” Nikolay zamonini unutmoqg‘a, har bir millatni bir huquqdagi grajdan hisoblamoqg‘a va shunga suyalib ish ko‘rmoqg‘a, albatta, lozim edi. Lekin nima sababdandir tekizlikg‘a qarshi ish ko‘rib keladilar”.

Muallif barcha zamonlar uchun tansiq bo‘lgan ijtimoiy tenglik, adolat va insof bilan ish yuritilishi tarafdori. Biroq oziq-ovqat taqsimlovchilar bunday mezonlarga amal qilmaydi. Shunga ko‘ra, ya’ni “binoan alayh biz aybning hammasini o‘z kamitetimiz ustiga ag‘darmay bosh taqsimchilardan o‘pkalasak haqliroq bo‘lamiz”, deb ta’kidlaydi. Muallif gapini: “Oziq kamitetining yangi mutasaddilarining xalq uchun foydalik xidmatlarini kutuvimiz ila barobar mundan so‘ng bosh taqsimchilarimizning tekizlikg‘a rioya qilib ish ko‘rushlarin umid qilamiz”, deb tugatadi. “Tekizlik” – tenglik anqoning urug‘i. Mahalliy aholi o‘z uyida ularga “xo‘ja bo‘lmoq istagan” kelgindi kimsalar tomonidan kamsitiladi, tahqirlanadi.

Gazetada berilgan “Kunlik oziq kartichkalari tarqatiluv munosabati-la” nomli maqolaga “M.A.Q.” imzosi qo‘yilgan. Unda ham xalqning maishiy hayoti, turmush tashvishlari muhokama qilinadi. Aslida ish boshida turganlar “millat ayirmasi ila ish yurituvchi shaxslar bo‘lg‘oni” uchun adolatsizlikka yo‘l qo‘yishadi. Buning natijasida esa “yangi shahar grajdanlari bahuzur kun kechirib, eski shaharliklar o‘gay bola qabilindan ochlik-yalong‘ochlik”da “ochlikdan o‘lmakg‘a majbur bo‘lib keldilar”. Oldingi maqolaga mos ohangda: “Tekizlik va adolat uchun jon berib yurgan hukumatimiz, albatta, va’dasiga muvofiq ish ko‘rsa kerak”, deyiladi umid bilan. Bunda muallif adolat va haqiqat talabidagi millatparvar shaxs qiyofasida ko‘rinadi. Eski Toshkent bilan yangi Toshkent aholisiga oziq-ovqat yetkazib berish jarayonidagi taqsimchilarning tarozisi nosozligidan norizo bo‘ladi.

“A.Q” imzoli “Iqtisodiy kuch” maqolasi gazetaning izma-iz uchta sonida beriladi. Unda Turkistondagi “kooperativ va matlubot ismidagi jamoat do‘konlari o‘z ismlariga loyiq zarracha bo‘lsin faqir xalqg‘a” foyda bermayotgani, aslida ular aholining maishiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashda Daniya, Irlandiya, Ispaniya va Germaniya kabi davlatlarning tajribalariga tayanishi zarurligi ta’kidlanadi. Yevropada faoliyat yuritgan matlubot jamiyatlari tarixiga tegishli fikrlar ma’lumot xarakterida berilgan bo‘lib, ular mahalliy xalqning madaniy saviyasini ko‘tarishga xizmat qilgan.

“M.Abdulla.Q.”, “M.A.Q”, “A.Q.” imzolar egasi Abdulla Qodiriy ekaniga shubha yo‘q. Zotan, Oziq qo‘mitasida ishlagan davrda yozgan ijtimoiy maqolalarida adib aholining ahvolidan xabardor, xalq uchun qayg‘urgan, moddiy ta’minotda adolat va tenglikni talab etgan faol jurnalist sifatida ko‘rinadi. Muhimi, yozuvchi qalbida ezgulik bor. U yangi kundan obodlik, to‘qchilik va yaxshilikni umid qiladi.

Abdulla Qodiriy uslubiga xos bir jihat shuki, maqolalar tilida “o‘tgan ishga salovat, deydirlar”, “ismi bor – jismi yo‘q” , “bir-birining orasida osmon ila yercha farq ko‘rilur”, “dardiga darmon bo‘lur” kabi ta’sirchan ifodalar o‘rinli ishlatiladi. Qisman bo‘lsa-da, bu maqolalarda og‘ir va mashaqqatli tarixiy davr ruhi, maishiy-ijtimoiy hayot manzarasi o‘z ifodasini topgan. Bu ifoda uning “Qimmatchilik hasrati”, “Dumbasi tushib qolgan emish” kabi kichik felyetonlarida ham kuzatiladi. Julqunboy achinib, kuyinib, nim tabassum va achchiq hasrat bilan qimmatchilik tufayli qiynalgan odamlar holiga oilaviy muhiti hamda o‘z hissiy kechinmalarini qo‘shib yozadi. Gohida yozganlaridan foyda bor-yo‘qligiga qaramaydi; ichkarisini bo‘shatishni istaydi. “Har holda hasratimni yozib, yurakimni bo‘shatib olganim uchun o‘zimni yengil kabi sezmoqdaman”, deydi.



Darvoqe, Oziq qo‘mitasi davr talabiga ko‘ra maydonga kelgani va mamlakatdagi ocharchilikka barham berish uchun tuzilgani sir emas. Chunki 1917–1920-yillardagi ommaviy ocharchilikda “ota-onalar suyukli bolalaridan, bolalar ota-onalaridan ayrildilar”. Bu “favqulodda fojialik va falokat yillar”i bo‘lgan edi. Davr matbuotida “Ochlarga ko‘mak”, “Ochlarni unutmangiz”, “Och qishloqqa ko‘maklashamiz” sarlavhalar bilan xabar va maqolalar bosiladi. Ulardan birida Rusiyaning chekka bir o‘lkasidagi ochlik xususida bunday gap yozilgan ekan: *“Ochliq orqasidan miyasi shishgan, devona bo‘lish darajasiga yetgan dehqonlar yerda ag‘nab yotib, qattiq yerni chaynaylar ham o‘z bolalarini o‘ldirib yeyishar ekan. Boshqa kishilarning o‘liklarini yerdan kavlab olib, pishirib yeyish oddiy bir ish bo‘lib ketgan...”*

Oziq qo‘mitasida ishlayotgan, voqelikni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan va xabarlarni o‘qib borayotgan insonparvar, haqiqattalab qalam ahli adolat, tenglik, to‘kinlik uchun kurashdi. Inson qadrini o‘ylab, farovonlik orzusida bo‘ldi. Darhaqiqat, o‘tmish fojialariga oid bunday dalillar tarix kitoblari sahifalaridan o‘rin olmog‘i lozim. Qolaversa, o‘z vaqtida bitib qo‘yilgan tarixiy dalillar juda o‘jar bo‘ladi. Shamolda uchmaydi, o‘tda yonmaydi, o‘chirsang – o‘chmaydi...

Tarixiy muhitni teran anglash va dildan his etish uchun o‘sha davrning qimmatli manbalarini sinchiklab o‘rganish, ulardan munosib xulosalar chiqarish kerak. Aslida ocharchilik, qahatchilik zamonidagi hasratli bitiklarga nazardan maqsad ham bugungi farovon turmush qadriga urg‘u berishdir. Qahatchilik zamonlarida mollar ozuqasi bo‘lgan kunjarani yeb, shishib azob tortgan va o‘lganlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan enam: “Ochlik neni yedirmas, to‘qlik neni dedirmas”, der edi. Isrofga berilish – yomon, to‘qlikka sho‘xlik, manmansirash – illat. O‘zligini anglagan oqil odam aslo bunday marazlarni o‘ziga yuqtirmaydi. Zero, har kim dunyoning qaysi bir burchagida bugun ham odamlar ochlikdan qirilib ketayotganini idrok etishi, ne’matlar qadriga yetishi, shuningdek, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun shukrona aytishi lozim.

Bahodir NURMUHAMMAD

MULOHAZA

Sarvinoz BAHODIROVA:

“KASBIMDAN HALOVAT TOPDIM”



Men, Sarvinoz Bahodirova – poliglot, ya’ni ko‘p til biluvchiman. Nechta deysizmi, hozircha o‘n bir tilda mukammal gaplashaman. Bunga qanday erishdim? Avvalo, oiladagi muhit sabab bo‘lgan. Uch-to‘rt yoshligimda mehmonga kelgan qarindoshlarimizning bolalariga televizordagi multfilmlarni taxminan qahramonlar harakatiga qarab “tarjima” qilib berardim. Bu mashg‘ulotimdan mamnun bo‘lgan kattalar keyinchalik bolakaylarning barchasini yonimga o‘tqazib qo‘yib, “Qani, o‘rtoq tarjimon, bo‘ri nima deyayotganini ukalaringga tushuntirib ber-chi”, deyishardi. Bunday e’tibor menga yoqar, o‘zimni kattalardek tutib, obrazga kirib, o‘zim tushunmagan tilni “o‘zbekchalashtirib” tashlardim. Lekin yolg‘iz qolgan paytimda tushunarsiz tilda gapirayotgan teleqahramonlarni anglay olmasdan jahlim chiqar, asabiylashar edim. Mana shu kechinmalar meni til o‘rganishga undagan bo‘lsa, ajabmas.

Ha, balki shuncha tilni qanday o‘rganish mumkinligi, uning texnologiyasi sizni qiziqtirayotgandir. Qisqasi, buning yo‘li juda oson. Shunchaki, o‘zim bilgan va doim duch keladigan buyum hamda yo‘llardagi dov-daraxtlar, belgilar, binolarga biror tildagi so‘zni xayolan biriktirib qo‘yardim. Zinalarning har bir pillapoyasiga o‘zimcha nom qo‘yar, ko‘nikma hosil bo‘lgandan keyin o‘sha “yozuv”larni boshqasiga almashtirardim.

Shuningdek, bir til oilasiga mansub xorijiy tillarni o‘rganish nisbatan yengil kechadi. Chunki ularning strukturasi, gap qurilishi kabi umumiy jihatlari borligi ishingizni osonlashtiradi. Bulardan ham muhimi, tinimsiz mehnat va kuchli ishtiyoq zarur. Shundagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Bugun til o‘rganaman, degan o‘quvchilar uchun ko‘plab imkoniyatlar mavjud. Jumladan, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yigirmadan ortiq xorijiy tillarni onlayn tarzda bepul va kreativ usulda o‘rgatish uchun “Ibrat farzandlari” loyihasi tashkil qilingan.

TIL BILGAN EL BILADI

Til bu – boylik. Til bilgan inson dunyoni biladi. Ulug‘ mutafakkir Abu Nasr Forobiy shunchalik ko‘p tilni bilganidan tarixiy manbalarda “Forobiy yetmishdan ortiq tilni biladi”, deb haqli e’tirof etilgan ekan. O‘z ona tili bilan birga chet tillarini bilish o‘zga xalqlar tarixi, madaniyati, turmush tarzini o‘rganishga imkon yaratadi.

Men hozirda 6 ta til yo‘nalishida o‘quvchilarimga dars berib kelyapman. Darslarim asosan onlayn tarzda bo‘ladi. Bir oyda yuz, ba’zan ikki yuzdan ortiq odamga til o‘rgataman. O‘quvchilarimning 20 foizi qirq yoshdan oshgan bo‘lsa, yana yigirma besh foizi maktab o‘quvchilaridir. Qolganlari esa talabalar va abituriyentlar.

Xorij ta’lim metodikasini uzluksiz kuzatib, o‘rganib boraman. Mening til o‘rgatish uslubim boshqalardan keskin farq qiladi: uzog‘i bilan to‘qson daqiqa ichida o‘quvchilarimga til grammatikasini tushuntirib bera olaman va bu jarayon ularda o‘rganayotgan tili haqida yaxlit tasavvur uyg‘otadi. Bu saboq ularga umumiy ma’lumot sifatida xizmat qiladi va hafta mobaynida o‘tkaziladigan chuqurlashtirilgan darslarni o‘quvchi osongina o‘zlashtira oladi. Mazkur uslubim yordamida ko‘plab o‘quvchilarim yuqori natijalarga erishib kelyapti.

TIL O‘RGANISHDA YOSHNING AHAMIYATI

Til o‘rganishda yoshning ahamiyati yo‘q, deb bilaman. Chunki yuqorida aytib o‘tganimdek, 20 foiz o‘quvchilarim 40 yoshdan oshgan insonlar va ularning qabul qilish darajasi maktab bolalariga nisbatan tezroq. Hozirda 56 yoshli o‘quvchilarim ham bor, ular katta ishtiyoq bilan til o‘rganyapti.

Dunyo tajribasida til o‘rgatishni go‘dak ona qornidaligidayoq boshlash eng maqbul yo‘l hisoblanadi. Olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, homilador ayol xorijiy tilda musiqa tinglasa yoki kinolar ko‘rsa, tug‘ilajak farzandining o‘sha tilni o‘zlashtirishi oson kecharkan. Bolada chet tilga nisbatan instinkt paydo bo‘ladi.

O‘ZBEK TILIGA MUNOSABAT

Bugunning zamonaviy yoshlarida ona tilimizga bo‘lgan munosabat achinarli ahvolda. Biz o‘zbeklar jamoat joyida iloji boricha boshqa tilda gapirishni yaxshi ko‘radigan xalqmiz. Buning sababini bir so‘z bilan izohlash qiyin. Bu hozirgi yoshlarning til boyligi nochorligidan, bilimsizligidan, kitobdan uzoqlashayotganidan dalolat emasmikan?

Bir poliglot sifatida shuni aytishim mumkinki, o‘nta tilni bilamanmi, undan ham ko‘pmi, buning ahamiyati yo‘q. Avvalo, men o‘zbekman, O‘zbekistonda yashayman. Shuning uchun ham yurtimda ona tilimda gapirishim shart. Ko‘p til o‘rganishimga yana bir sabab – dunyo yangiliklarini o‘rganib, milliy madaniyatimiz va shonli tariximizdan jahon jamoatchiligini xabardor qilishdir.

KITOB YOKI SMARTFON?

Bugun virtual asrda til o‘rganish jarayoni kitob bilan emas, telefon va kompyuterlar bilan samarali bo‘lyapti. Sababi, boshqa tilni o‘rganish uchun o‘qish emas, ko‘proq gapirish va tinglash muhimdir. Bugun ijtimoiy tarmoqlar ko‘pchilik yoshlarga til o‘rganishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Hattoki, dars o‘tishda ham menga onlayn o‘qitish tizimi qulay.



Aslida til o‘rganish bizdan ma’lum vaqt talab qilmaydi. Tilni kun davomida uy yumushlarini bajarib ham o‘rganish mumkin. Bunda ko‘proq ijtimoiy tarmoqlardagi video darsliklar va kinolar yordam beradi. Bu kabi mashg‘ulotlar vaqtimizni tejaydi. Har bir daqiqadan unumli foydalanish kerak. “Bekorchilik ortidan yomonliklar keladi”, derdilar onam. Onamning o‘gitlari bilan shu darajaga keldim. O‘ylaymanki, odamzod shunchaki yashashi kerakmas, kimgadir foydasi tegishi shart.

Ba’zida mendan “Shuncha tilni bilsangiz nega aynan o‘qituvchilik kasbini tanlagansiz?”, deb so‘rashadi. Men bu ishdan halovat topdim. Qolaversa, ko‘pchilikka yordamim tegayotganidan xursandman. Men uchun muhimi shu...

Darvoqe, bolalikda o‘zim bilib-bilmay, taxminan tarjima qilgan multfilmlarimdan birini yaqinda ko‘rib, hayratga tushdim. Savqi tabiiy “dastur”i bo‘yicha qilgan tilmochligimda aytarli xatoga yo‘l qo‘ymagan ekanman.

Vasila HABIBULLAYEVA
yozib oldi.

Boshlanishi 1-sahifada.

Yaqinda qo‘limizga qahramonimizning faoliyatiga oid uchta xat tushib qoldi. Bu hujjatlarning sovet rejimi va bolshevizimning O‘rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosatiga kuchli zarba bo‘lganiga shak-shubha yo‘q. Uzoq Andijondan, andijonlik istiqlol kurashchilari tomonidan yuborilgan bu xatlar O‘rta Osiyo xalqlarining sovet hukmronligiga, bosqinchilik siyosati va amaliyotiga qarshi qaratilgan o‘ziga xos manifest, mazlum xalqlarning nidosi, noroziligi, mudhish mustamlaka, shovinist siyosat amaliyotiga qarshi qaratilgan norozilik, inqilobiy na’rasi edi.

Farg‘ona oblast Skobelev shahar dumasi va Jamoat tashkilotlari komitetining 1918-yil 7-fevraldagi yig‘ilish ma’ruzasidan ma’lum bo‘lishicha, Muxtor hukumat hamda Kengash a’zolari Mirali Mirahmedov, Abduqodir Qushbegiyev, musulmonlar sho‘rosi tashkiloti raisi Bo‘taboy Dadaboyev tomonidan Farg‘onadagi voqealar to‘g‘risida rezolyutsiya qabul qilingan. Rezolyutsiya mualliflari Skobelev shahar dumasi va Jamoat tashkilotlari qo‘mitasi hokimiyatni zudlik bilan Turkiston muxtor hukumatiga topshirish zarur deb hisoblagan va hukumat organlari tuzilgunga qadar Muvaqqat viloyat jamoat kengashini tashkil etishni taklif qilishgan. Ushbu hujjat 1919-yil 8-dekabrda Toshkentdan RSFSR Butunrossiya markaziy ijroiya komiteti va Xalq komissarlari soveti huzuridagi Turkiston komissiyasiga yuborilgan. Xususan, unda quyidagi masalalar o‘z ifodasini topgan:

1. Turkiston Sovet Respublikasi mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda ba’zi bir istisnolardan tashqari Rossiya sovet federativ sotsialistik respublikasi konstitutsiyasi kabi konstitutsiya bilan boshqarilsa-da, u asosiy organ qonuni bo‘lganligi sababli, alohida sovet muassasalari va ular xodimlarining o‘zaro munosabatlarini tartibga sola olmaydi.

2. Hozirgi kunga qadar na alohida komissarliklar, na ular boshchiligidagi komissarlarning rasmiy munosabatlari to‘g‘risida umumiy tartib, na sovet korxonalari va muassasalarida ishchilar va xizmatchilarning intizomiy javobgarligi to‘g‘risidagi qoidalar mavjud emasligi, davlat amaldorlarining o‘zboshimchaliklariga mutlaqo cheklov o‘rnatilmagani, yaqin vaqtlargacha ko‘pchilik komissarliklar va boshqa markaziy muassasalar ruxsatsiz ochilib, hech qanday me’yoriy hujjatlarsiz, ko‘pincha esa biron-bir rejasiz faoliyat yuritgan. Natijada ayrim masalalar bo‘yicha vakolatlar to‘g‘risidagi nizolar odatiy hol bo‘lib qolgan. Muassasalarning samarasiz yozishmalari ko‘p vaqt olgan. Musulmonlar tegishli komissarlik, bo‘lim, seksiya va hokazolarni qidirib, shahar bo‘ylab yurish uchun uzoq vaqt va mablag‘ni behuda sarflashgan.

Abduqodir Qushbegiyev ayrim sovet institutlari o‘rtasidagi munosabatlarga to‘xtalganda, ayniqsa, Ichki ishlar komissarligining musulmonlarning uzoq yillar davomida qo‘pol ravishda buzilgan shaxsiy va mulkiy daxlsizligini himoya qilish masalasi bilan bog‘liq faoliyatiga alohida e’tibor qaratadi. U o‘z xatida aholiga qilingan cheksiz zulm, sun’iy ravishda vujudga keltirilgan ocharchilik va uning oqibatlari, dashnoqlar-u qizil armiya zobitlari tomonidan uyushtirilgan qotilliklar-u talon-torojliklar mohiyatini hayotiy misollar bilan yaqqol ochib beradi. Vaziyatni tubdan izga tushirish uchun quyidagilarni talab qiladi:

1. Barcha kichik va o‘rta musulmon dehqonlarga ulardan tortib olingan yerlar, bog‘lar, uzumzorlar, tegirmonlar, asbob-uskunalar hamda barcha mol-mulklar qaytarib berilsin. Bedarak yo‘qolganlar va talon-toroj qilinganlar, o‘rmonlari kesib tashlanganlar uchun adolatli tovon puli to‘lansin.

2. Musulmon qishloq xo‘jaligi mehnatkash ommasining murosasiz nafratini o‘z talon-torojliklari va zo‘ravonliklari bilan nom qozongan barcha Qishloq xo‘jaligi kommunalari va Kambag‘allar uyushmalari yo‘q qilinsin.

3. Sovet hukumati agentlari tomonidan tovlamachilik va poraxo‘rlikdan jabr ko‘rgan barcha musulmonlar taklif qilinib, poraxo‘rlar, tovlamachilar aniqlansin. Shikoyatchilarga tahdidlardan to‘liq himoyalanish va ulardan qasos olinmasligi kafolatlansin.

4. O‘rtahol musulmon uy egalariga ulardan olingan uy-joylarni, shuningdek, savdogarlar va jismoniy shaxslarga tegishli har qanday musodara yoki rekvizitsiya qilingan barcha mol-mulkning adolatli qiymati to‘lab berilsin. Bu ish kichik va o‘rta savdoni tiklash to‘g‘risidagi dekretning e’lon qilinishi bilan ayni muddao bo‘lardi.

5. Yer islohoti bilan shug‘ullanuvchi amaldorlarning 95 foizi musulmonlar bilan almashtirilishi lozim.

6. Musulmonlar uchun umumiy xalq sudining o‘rniga shariat va odatni tiklagan holda, umumiy saylov asosida Qozilar sudi bo‘lishi kerak. Tovlamachilar, poraxo‘rlar va zo‘ravonlarning ishini ko‘rib chiqish musulmon sudlariga o‘tkazilishi kerak.

7. G‘alla monopoliyasi juda ahamiyatsiz natijalarni berganligi sababli, xalqni Sovet hokimiyatiga qarshi qaratdi. Shuning uchun g‘allani erkin narxda sotishga ruxsat berilishi kerak.

8. Xususiy kichik va o‘rta savdoga, shuningdek, barcha turdagi sanoat hamda hunarmandchilik ishlab chiqarishiga ruxsat berish kerak.

9. Qaroqchi deb atalgan shaxslarning Farg‘ona aholisiga nisbatan talon-toroj qilishlari natijasida hamda o‘sha qaroqchilarning ta’qibchilari va bostiruvchilari tomonidan sodir etilgan o‘g‘riliklardan ko‘rgan zararlarini qoplash lozim...

A.Qushbegiyev.

Xat muallifi Abduqodir Qushbegiyevning o‘zi kimligi va taqdiri ne kechgani o‘quvchini qiziqtirishi tabiiy. Hujjatlarga murojaat qilamiz. U 1882-yilda tug‘ilgan, millati o‘zbek, otasi Xudoyorxon davrida vazir-hokim bo‘lgan. 1889-yili otasi vafot etgach, u andijonlik qarindoshi Shermuhammad Alimqulovning uyiga ko‘chib kelib, musulmon va rus-tuzem maktablarida o‘qigan. 1905-yildan 1917-yilgacha Andijondagi Mirkomilboy Mirmo‘minboyevning paxta zavodida turli vazifalarda ishlagan.

1917-yil 17-mayda Andijon soveti raisi, menshevik M.Brizgaylov ma’ruzasiga muvofiq, Andijon jadidlarining homiysi Mirkomilboy Mirmo‘minboyev Turkiston sarhadidan butunlay badarg‘a qilinadi. Toshkentda turgan Mirkomilboy Mirmo‘minboyevni yashayotgan joyida uy hibsida saqlab turishlikka qaror qilingan. Bu asossiz qarorni Turkiston qo‘mitasi ham ma’qullagan. Keyinroq u Toshkentda qamoqqa olingach, bu hodisa “Sho‘royi islomiya”chilarning, ayniqsa, Andijon musulmon aholisining kuchli noroziligini keltirib chiqargan. Bu haqda “Sho‘royi islomiya”ning musulmon deputatlari nomidan Andijon soveti hay’ati a’zosi Abduqodir Qushbegiyev 1917-yil 30-iyunda Turkiston qo‘mitasiga yozma ma’ruza topshirgan. Unda, jumladan, shunday deyilgan: *“Jamoatchilik xavfsizligi qo‘mitasi o‘z faoliyatining dastlabki qadamlaridanoq musulmon aholisi va musulmon deputatlari sho‘rosiga nodo‘stona munosabatda bo‘lib, musulmonlarni, ularning tashkilotlarini nazar-pisand qilmay va musulmonlarga ochiqdan-ochiq qarshi borib, ularni siyosiy g‘o‘rlik va hatto, eski tuzumga tarafdorlikda aybladi. Qo‘mitaning bunday tuhmatona chiqishlari, shuningdek, musulmon deputatlari sho‘rosining faol arboblarini qamoqqa olinishini musulmon aholisi o‘zlariga nisbatan tazyiq sifatida tushunishdi...”*



Abduqodir Qushbegiyevning kuyovi, taniqli davlat va jamoat arbobi, qatag‘on qurboni Usmonxon Eshonxo‘jayev (1899–1938).

MILLAT FIDOYILARI:

ABDUQODIR QUSHBEGIYEV

(1882–1937)

Uning murojaatidan so‘ng keng jamoatchilik talabi bilan Mirkomilboy Mirmo‘minboyev hibsdan ozod qilinib, Andijonga keltiriladi.

O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan Abduqodir Qushbegiyev 1937-yil avgust oyining boshida qamoqqa olingan. Tergovda u otasining Qo‘qon xonligi davrida Toshkent shahrida xazinabon, Chernyayevga qarshi janglarda sarkarda bo‘lganini, xizmatlari evaziga Xudoyorxon tomonidan oltmish ming tanob yer bilan mukofotlanganini aytgan. Uning otasi ushbu yerdan keladigan daromadning 1/40 foizini o‘ziga olib, qolganini davlatga va vaqf mulklariga topshirgan.

Abduqodir Qushbegiyevga 1916-yili aholini mardikorlikka olish voqealari munosabati bilan ko‘tarilgan qo‘zg‘olonda ishtirok etganlik aybi qo‘yilgan. Ammo tergov qilinmagan. Shundan so‘ng u tarjimon lavozimida xizmat qilgan. 1917-yili Andijonda sovetlarga saylov o‘tkazilganda, u Andijon uyezdi musulmonlar sovetiga, keyinchalik Farg‘ona oblast soveti deputatligiga saylangan.

Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng u turli sovet muassasa va tashkilotlarida xodim bo‘lib ishlaydi. 1917-yil noyabrda Qo‘qon shahrida jadidlarning sa’y-harakati bilan Turkiston muxtoriyati tashkil etilganini A.Qushbegiyev xayrixohlik bilan qarshi oladi.

U 1919-yili Turkiston yer-suv ishlari xalq komissari, keyinchalik Buxoro sovet xalq respublikasida yer-suv xo‘jaligi vaziri bo‘lib faoliyat yuritgan. 1921-yil 24-oktyabrdan to 9-noyabrgacha bo‘lgan vaqt mobaynida A.Qushbegiyev Turkiston paxtachilik komiteti raisi va rais o‘rinbosari vazifalarida ishlagan.

Abduqodir Qushbegiyev 1918–1925-yillari bolsheviklar partiyasi a’zosi bo‘lgan. 1925-yili OGPU kollegiyasi tomonidan davlat shartnomalarini bajarmagani uchun 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan va partiyadan o‘chirilgan.

Unga inqilobning birinchi kunlaridanoq sovetlarga qarshi kayfiyatda bo‘lgan, partiya siyosati bilan kelisha olmagan, mulkdor burjuaziyaning mulkini milliylashtirish, musodara qilishga qarshi chiqqan, aksilinqilobiy, millatchilik harakatida ishtirok etgan, aksilinqilobchilar Abduqodir Muxitdinov, Fayzulla Xo‘jayev va boshqalar bilan kengashlarda qatnashgan va shu aksilinqilobiy tashkilot topshirig‘i bilan Turkiston Ichki ishlar xalq komissari M.Oripovga qarshi 1921-yili tashkil etilgan terror ijrochilaridan biri degan ayb qo‘yilgan.

Jadidlik harakati to‘g‘risida so‘z ketganda, 1917-yili Toshkentda G‘ulomhasan Orifjonov bosmaxonasida litografiya usulida risola holida chop etilgan “Turk odami markaziyat (federalist) partiyasining nizomnomasi va maromnomasi” alohida ahamiyatga molik. Bu har ikki hujjat 1917-yil sentyabrida Toshkentda Turkiston o‘lka musulmonlari III qurultoyida qabul qilingan. Ular bo‘lajak mustaqil Turkiston xalq jumhuriyatining butun bir maqomi, tuzilmasi ifodasini topgan konstitutsiyasi edi. Bu maromnoma va nizomnoma qonunlarini yozgan o‘n to‘rt muallifdan biri Abduqodir Qushbegiyev bo‘lgan.

Abduqodir Qushbegiyev o‘lka soveti va Turkiston qo‘mitasining olib borayotgan munofiqona siyosatiga shama qilib shunday yozgan: *“Rus proletariati qanday oliy g‘oyalar, qanday chiroyli so‘zlarni aytdi, lekin haqiqiy hayot har holda bu oliy g‘oyalar va chiroyli so‘zlardan uzoq. Tintuvlar, tergovsiz sud va muayyan bir aybnomalar qo‘ymasdan qamoqqa olishlar, turarjoy erkinligining buzilishi – bularning hammasi inqilob erishgan erkinliklarni saqlab qolish nomidan qilinmoqda! Butkul qarama-qarshi tushunchalarni qanday bayon qilish mumkin, shior bilan dalillar o‘rtasidagi ziddiyatlarni qanday tushuntirsa bo‘ladi? Kelajakdagi huquqlar nomidan ochiqdan-ochiq qonunsizlik yuz bermoqda”.*

1916-yil 22-noyabrdagi Turkiston rayon muhofaza bo‘limi ishlari bo‘yicha so‘roq bayonnomasida Abduqodir Qushbegiyevning Andijondagi “Taraqqiyparvar” partiyasiga mansubligi aytilgan. Uning tushuntirish xatida yashirin partiyaning dasturi, faoliyati va mahalliy aholining “Taraqqiyparvar”ga munosabati aks ettirilgan.



Usmonxon Eshonxo‘jayevning qizi, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Sharofat Eshonxo‘jayeva.

Shu arxivning 121-fondi, 1-ro‘yxati, 99-ishidagi materiallar orasida Abduqodir Qushbegiyevning aksilinqilobiy “Qo‘qon Muxtor davlati” a’zolari qatorida bo‘lganini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud. U Turkistondagi og‘ir ahvol va uni bartaraf qilishda boshqaruv tizimidan unumli foydalanish kabi o‘ta muhim va dolzarb vazifalarni sovetlarning eng yuqori organlari oldiga qo‘ygan mahalliy arbob hamdir.

1957-yil 6-fevralda Abduqodir Qushbegiyevning nabirasi Sharofat Usmonovna Eshonxo‘jayeva (mashhur jadid, partiya, sovet va matbuot tizimida uzoq yillar ishlagan va qatag‘on qurboni bo‘lgan yana bir jabrdiyda Usmonxon Eshonxo‘jayevning qizi) O‘zbekiston SSR davlat xavfsizligi qo‘mitasi raisiga ariza bilan murojaat qilgan. Unda, jumladan, shunday deyiladi:

“Ichki ishlar vazirligi tomonidan mening bobom Qushbegiyev Abduqodir (1882-yilda tug‘ilgan, o‘zbek, Toshkent shahridan) 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan, oilasi bilan yozishma olib borish huquqisiz, Nagayev buxtasiga etap qilingan. Mana oradan 20 yil o‘tib, Sizning tasarrufingizdagi organ tomonidan bizga uning 1941-yil 4-avgustda yurak kasalidan vafot etgani haqida xabar qildi.

Men va bizning oilamizga:

1. Qachon va qaysi sabablarga ko‘ra qamoqqa olingani haqida xabarni yetkazish;

2. Abduqodir Qushbegiyevning o‘limidan keyin to‘lasincha reabilitatsiya qilinganligi to‘g‘risida bizga, oilasiga nohaqdan berilgan “xalq dushmani oilasi” degan nomni olib tashlash haqida ma’lumot berishingizni so‘raymiz. Javobni quyidagi manzilga yuborishingizni so‘raymiz: Toshkent shahri, O‘rmon kichik ko‘chasi, 34-uy. Eshonxo‘jayeva Sharofat Usmonovna. 6-fevral 1957-yil. Toshkent shahri.”

Sharofat Eshonxo‘jayeva O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti huzuridagi partiya arxiviga hamda O‘zSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Davlat xavfsizligi qo‘mitasi arxiviga 1958-yil 17-fevralda murojaat qilib, bobosi Abduqodir Qushbegiyev haqida ma’lumot berishini talab qilgan.

Taassufki, nohaqlik qurboni bo‘lgan minglab taqdir egalari kabi Abduqodir Qushbegiyevning keyingi qismati haqida jabrdiyda oilaga biror jumla ham asosli javob xati yuborilmagan.

Bizningcha, istiqlol kurashchisi va qatag‘on qurboni Abduqodir Qushbegiyevning nomi Andijon va Toshkentda abadiylashtirilishi tarixiy adolat tantanasi bo‘libgina qolmay, millat va Vatan uchun jonini tikkan ajdodlarning oldidagi farzandlik burchimizdir.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
Azizbek MAHKAMOV,
Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi xodimlari

XOTIRA AZIZ

QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Mulla Sobit Toshmatov – Uychi qishlog‘idan, millati o‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, mulkdor, diniy maktabda o‘qigan, oilali, sudlanmagan. Aksilinqilobiy, qo‘zg‘olonchi, bosmachi tashkilotning a’zosi. Nosirxonto‘raga tashkilot ehtiyojlari uchun miltiq bergan va uni Uychi qishlog‘ida yashirgan. O‘zSSR JK 58–67-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

Mamazokir Shukurboyev – Namangan rayoni, Yoztepa kantonida yashagan. Millati o‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, dehqon, o‘rtahol. Amin Polvon bosmachi guruhining sobiq a’zosi, sudlanmagan. Aksilinqilobiy, qo‘zg‘olonchi, bosmachi tashkilotning a’zosi. U tashkilotga yangi a’zolarni jalb qilgan. O‘zSSR JK 58–67-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

Hasanxon Nosirxonto‘rayev – Koson shahridan, millati tojik. O‘zSSR fuqarosi, aniq mashg‘uloti yo‘q. Madrasada o‘qigan, uylanmagan, tergovda bo‘lmagan. 1930-yil martidan iyunigacha Nosirxonto‘radan ajralmagan va bosmachi qo‘zg‘olonchi tashkilotning maqsad va vazifalaridan voqif bo‘lgan. Nosirxonto‘raning maxsus topshiriqlarini bajargan va uning jangovar guruhi uchun uch qo‘lbola shamshir yetkazib bergan. Kambag‘al faol Temirboyevga qarshi teraktni amalga oshirishda ishtirok etgan. O‘zSSR JK 58–67-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

Hojixon Mulla Karimboyev – Namangan rayoni, Qumqo‘rg‘on qishlog‘idan. Millati o‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, diniy xodimning o‘g‘li, kambag‘al, sudlanmagan. Aksilinqilobiy bosmachilik tashkilotining a’zosi. U tashkilotga askarlarni jalb qilish bilan shug‘ullangan. O‘zSSR JK 58–67, RSFSR 58-2, 58-11-moddalaridagi jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan, aybini tan olmagan.

Rahmatulla Abduvahobov – Namangan rayoni, Qizilqiya qishlog‘idan. Millati o‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, kustar, ipakchi, uylangan, sudlanmagan.

Asqarali Abduvahobov – Namangan rayoni, Qizilqiya qishlog‘idan. Millati o‘zbek. Aniq mashg‘ulotga va yerga ega emas, uylangan, sudlanmagan.

Abdurahmon Topildiboyev – Namangan rayoni, Qizilqiya qishlog‘idan. Millati o‘zbek. Dehqonchilik va ipakchilik bilan shug‘ullangan, kambag‘al, uylangan, sudlanmagan.

Muhammadsho Qanoatshoyev – Namangan shahridan. Millati o‘zbek. Savodli, uylangan, kustar, ipak to‘quvchisi, sudlanmagan. Ushbular aksilinqilobiy tashkilotning Qizilqiya guruhi bo‘yicha a’zolari, o‘z uylarida bir necha bor Nosirxonto‘ra va uning qurollangan guruhining a’zolarini yashirib turgan. O‘zSSR JK 58–67, RSFSR 58-2, 58-11-moddalaridagi jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan. Ularning barchasi o‘zini aybdor deb hisoblamagan.

Mulla Turdi Ashurmatov – Yangiqo‘rg‘on rayoni, Kushon qishlog‘idan. Millati o‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, uylangan, savodli, diniy faoliyat bilan hamda dehqonchilik bilan shug‘ullangan, sudlanmagan.

To‘raboy Qodirqulov – Yangiqo‘rg‘on rayoni, Kushon qishlog‘idan. Millati o‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, uylangan, kambag‘al dehqon, sudlanmagan.

Hoshimboy Hakimboyev – Yangiqo‘rg‘on rayoni, Kushon qishlog‘idan. Millati o‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, uylangan, dehqon, sudlanmagan.

Mamarasul To‘raboyev – Yangiqo‘rg‘on rayoni, Kushon qishlog‘idan. O‘zbek millatiga mansub. O‘zSSR fuqarosi, uylangan, o‘rtahol dehqon, sudlanmagan. Aksilinqilobiy tashkilotning Kushon guruhi a’zosi, uzoq yillar davomida Nosirxonto‘ra va Istambekni o‘z qishlog‘ida yashirib yurgan, ularni oziq-ovqat bilan ta’minlab turgan. O‘zSSR JK 58–67, RSFSR 58-2, 58-11-moddalaridagi jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan.


Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

ZARDA

DARDINGNI OLAY... DEYOLMAYMAN

Tez-tez “ketmoni uchib” turadigan Erkin qozi ulfatlarni yig‘ib, “haq beradigan” bo‘lib qoldi. Ko‘rmaganimizga ancha bo‘lgan bir davradoshimiz (nafsoniyat vajhidan ismi sharifini aytmay qo‘ya qolay) davraning ko‘rki bo‘lib, qo‘r to‘kib o‘tirardi. Talabalik davrida chingilin gavdasiga atab qo‘yilgan chinachoq laqabi bugun eng semiz barmoq – boshmaldoqqa o‘zgartirilsa ham haqing ketadigan bo‘p qopti: musht, to‘garak musht deysiz. Qiziqib vaznini so‘rasak, fermer do‘stimiz bir sentnerlik marradan picha oshganini aytib, maqtangannamo qornini erkalagandek shapatilab qo‘ydi.



Husan SODIQOV chizgan rasm.

Erkin qozi uning oldidagi bo‘shagan tovoqqa o‘zining idishidan bir uyur go‘sht sola turib so‘radi: “Bu deyman, Chinachoq, bo‘ybastingga mos o‘lchamda kiyim topish ham muammo bo‘layotgandir?” Fermer do‘stimiz bir qiziq gap dabdurustdan esiga tushib qolgan odamdek uzoq hiringlab: “Kiyim-ku mayli, ammallab topsa yoki tiktirsa bo‘larkan. Lekin mana 3-4 yildirki paypog‘imni o‘zim kiyolmayman. Yangitdan toybolaga aylanib qoldim... To‘lalikning yana bir minus tomoni bor ekan, qattiqroq kulsang qorning amartizatsiya berib, to‘xtashi qiyin bo‘lib qolarkan. Gohida qorinni devorga tirab, zo‘rg‘a amallayapman. Lekin salobatingga qarab, salom beradiganlar ham ko‘p...” Uning g‘ururlangannamo so‘zlashini chetdan kuzatgan odam, bu kishi bir olamshumul yumushni qoyil qilgan-u, shuning sharafiga dasturxon yozgan, deb o‘ylashi aniq edi.

Darhaqiqat, semirish – qorin qo‘yish barobarida muammoni ham kattalashtirishdir. Aslida, unga oson tutib bo‘lmaydi. Bir yarim qulochlik bo‘yga mutaxassislar ellik kilolik vaznni muvofiq sanashadi. Do‘stimiz bu rejani ikki baravardan ziyod uddalagani – har bir yelkasida taxminan o‘ttiz kilolik qo‘sh qo‘chqorni ko‘tarib yuribdi, degani.

Birovlar bu mijozda, buni boshqarib bo‘lmaydi, zotga tortadi, deb tersayadi. Fermerimizning ota-onasi qalamdek qotmagina qomatga ega odamlar. Semizlik ham kasallik deydiganlarning gapida jon bor. Bu nafsni tiyolmaslik, badxo‘rlik, mechkaylik illatidir. Shu dasturxon boshida kuzatsam, chindan ham fermer do‘stimizning og‘zi ham, qo‘li ham tinmas ekan. Meni hayron qoldirgani sobiq chinachoq do‘stimizning me’dasiyam hazm bo‘lib ketganmi, qaymoqqa anjirni botirib, sharbatga qovunni aralashtirib uryapti hamki na qorni g‘o‘ldiraydi, na o‘zi bezovtalanadi. Achchiq-chuchukni qoshiqlab urib, ortidan shisha-pishasi bilan gazli “Chortoq”ni ko‘tarvorganda Alamazon bo‘p ket-e, devordik.

Bizning hayron boqqanimizni ko‘rib, bu ziyofatlar bir mashg‘ulot ekanini, yaqinda ikki kilolik Jizzax somsani o‘n besh daqiqada paqqos tushirib, uch yuz ming so‘m mukofot va bir million so‘mlik kiyim do‘konining vaucherini olganini og‘zini to‘ldirib aytib berdi. “Endi Andijonni mo‘ljallab turibman. U yerda oshxo‘rlik bo‘yicha xalqaro musobaqa bo‘layotgan ekan. Bir qirg‘iz qardoshimiz yaqinda bir kilo-yu yetti yuz gramm devzira palovni oshalab, g‘olib bo‘pti. Menga hamroh bo‘lsalaring, garov o‘ynab ikki kiloni rangini o‘chirib tashiyman. Anavilar instagramda rosa aylanib, mashhur bo‘lyapti. Mening ham nomim chiqsa, senlar maqtanib yurasan, falonchi bizni oshna, deb...”

O‘zining g‘ayritabiiy saxti-sumbati bilan tomoshabop bo‘lib qolgani yetmaganday, endi nafsi ammorasini bozorga solib, olomonga tomosha bo‘lmoqchiligiga nima deysiz?

Rostdan ham bu do‘stimizning kasali jiddiy, dardi – kuch. Ammo bu dard ijtimoiyroqqa o‘xshab qoldi. Dunyoda har yili o‘n milliondan ortiq saraton kasalligi qayd etiladi, sakkiz million kishida bu tashxis o‘lim bilan yakun toparkan. Astag‘firulloh... Avvallari saratonni faqat irsiyat yoki xavfli sanoatda ishlash orqali orttirish mumkin deb o‘ylashgan. Ammo bugun aniqlanishicha, noto‘g‘ri ovqatlanish va harakatsiz, tanbal turmush tarzi ham saratonni qo‘lidan tutib, yetaklab kelarkan. Xafaqon, qand kasali, bo‘g‘in yemirilishi, bepushtlik, churra kabi asorati og‘ir xastaliklar ham nafsni jilovlay olmaslik ortidan boshlanadi.

Tanani o‘rganish – ilm, der edi opog‘adam. Har bir odam bolasi o‘z mijozini va jismoniy holatini yaxshi bilishi kerak. Kim uzoq yashashni xohlamaydi? Lekin bu borada yolg‘iz xohish-istakning o‘zi kamlik qiladi.

Bolaligimizda baqaloqlar sanoqli bo‘lardi. Erkin qozining hukmiga ko‘ra, u paytlarda bolalar jismoniy mehnat, sport bilan muntazam shug‘ullanishgan. O‘zimiz ham oy yorug‘ida to‘p tepgan paytlarimiz ko‘p bo‘lgan. Hozirgilar yotvolib telefon o‘ynashdan bo‘shamaydi.


Buyam bir sabab. Yaqinda o‘g‘limning maktab bitiruv kechasiga borgandim. Bolalarning yarmidan ko‘pi baqlajondan nari, shakarpalak qovundan beri. Nega?

Nega bo‘lardi, bolakaylarning yemishi yarim tayyor ovqat – turli fast-fud-u gazli ichimliklarning beme’yor ekanida. Onalarga ham bu qulaydek. Qozon osib, jiz-biz qilib o‘tirmaydi. Buyurtma beradi, tamom. Ota jonivorniyam qulog‘i tinch: tushlik uchun ovqat olib kelgani chiqib ketayotgan o‘g‘liga velosipedni tutqazib, “mengayam sabbo‘y qildirib kelgin”, deb tayinlaydi.

“Siz to‘yga bormaysizmi?”, deb otaning yuziga hayron boqqan o‘g‘il qadimiy maqolni eshitadi: “To‘yga borsang, to‘yib bor.” Mana, to‘y dasturxoni: birinchisiga somsa-manti, keyin moxora yoki no‘xat sho‘rva. Ortidan norin, tabaka, keyin kabob, osh suziladi. Kamiga desert va muzqaymoq ham navbat kutib turibdi. Qolaversa, dasturxonda go‘shtli, qazili tandir kabobli va hokazolardan tarkib topgan yaxna gazak, meva-cheva, tarvuz-qovun, turli salatlar, shirinlik... O‘zbek semirmay, kim semirsin?! Ha, to‘y egasi ozgina vazn tashlashi boshqa mavzu. O‘quvchimiz ja oshirvoribsizlar, qishloqda bunaqamas, deyishi mumkin. Qishloqdayam choyxona-yu oshxonalar bodroqday potirlab yotibdi. O‘n yil nari bilan bugungi kunni solishtirib ko‘ring, o‘zingiz boshni irg‘ab qolasiz. Agar noto‘g‘ri bo‘lsa, bitta uylanmagan qora qo‘chqorning dumbago‘shti-yu cho‘ng‘ara guruchidan oshga mana men kafil. Yoqib ketdi, a?!

Bu yog‘i, Alixonto‘ra Sog‘uniy bobomiz aytgan o‘sha gap!

Mulla XUNOB



TARMOQLARDA NIMA GAP?

Safo ham, balo ham nazardan kelgay...

Buvim bir gapni bot-bot aytardilar: “Nazaringni to‘q qil. Safo ham, balo ham nazardan kelar”. Bugungi ijtimoiy hayot, interaktiv axborot maydoni buvimning hikmatli so‘zlarini xotiramda jonlantiraveradi. Feysbuk sahifalarida turmushidan norizo ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining oh-faryodlarini o‘qiy turib, nahotki, shu omon-omon zamonda shunchalik qiynalishayotgan bo‘lsa, degan o‘y o‘tadi xayoldan.

Besh yil siyosiy partiyaning matbuot xizmatida faoliyat olib bordim. Aholi murojaatlarini joylarga chiqib o‘rgandik. Navbahor tumanining Duldul mahallasida bo‘lgan uchrashuvda yoshgina bir yigit “Mahalla bolamga bola puli bermayapti, Prezidentga arz qilmoqchiman”, deb murojaat qildi. Uyiga boradigan bo‘ldik, qiynalgan oilaga o‘xshaydi deb ro‘zg‘orlik uyushtirdik.

Mart oyining boshi, qish zahri hali ketmagan. Uch yoshga to‘lmagan bola hovlida ishtonchan holda qum o‘ynab o‘tiribdi. Bizni kutib olgan ayoli (oldindan xabarini bergan ekan) tandirxonasiga boshladi, “Shu tandirxonamdan suv o‘tib, tandirimni ustiga tushyapti. Endi manga kim tandir olib beradi?” dedi. “Bolani oling, sovuq”, deyishimga e’tibor ham bermay, yo‘qchilik, odamlar qiynalayotgani, kun ko‘rmayotgani haqida gapirdi. Ichkaridan hali quvvati joyida, tog‘ni ursa talqon qiladigan ota ham chiqdi. Yigitga “ishlasangiz bo‘lmaydimi, yosh ekansiz”, desak, uning o‘rniga ham ayoli javob berdi: “U ishlasa meni kim qo‘riqlaydi?”

Hovli yillarki, ekin-tikin qilinmagan. Vaholanki, Duldul mahallasi Zarafshon daryosining shundoq yoqasida joylashgan. Suvdan muammo yo‘q, tuprog‘i unumdor...

Oxiri sabrim chidamadi. “Bolangizning ishtonini mahalla kiydirsinmi, singlim? Uch birday odam bir bolani boqishga, parvarishlashga hafsalangiz kelmasa, davlat aybdormi?”

Bu kabi holatlar ko‘p bo‘ldi. Yana bir gal 100 yoshdan oshgan onaxonni yo‘qladik. Ikki qizi peshvoz chiqdi, “Endi esinglarga tushdimi onamiz? Tug‘ilgan kuni o‘tdi, 8-mart o‘tdi. Obkegan bir quti yeguligingiz nima bo‘ladi?”

Onaxon bir o‘rin bo‘lib yotibdi. Suvdan boshqa narsa tomog‘idan o‘tadigan emas. Nimagadir qo‘llarimni mahkam siqib ushlab, qo‘yvorgisi kelmasdi. Qo‘limni tortsam, etagimga yopishdi. Ketarimni bilib, ko‘zidan ikki tomchi yosh to‘kildi. Bir amallab chiqdim. Hamrohlarim avtoga joylashib bo‘lgan, ikki mezbon opaxon esa astoydil qarg‘anishga o‘tib ketgan ekan. Sabrim chidamadi. “Opajonlar, sizday boy odam dunyoda bormi? Sizning istagingizni bajarishga bizni pulimiz yetmaydi. Meniyam onam 100 yoshga kirsin, xizmatlarini qilay, rozi qilay, elga shukrona oshi beray”, deb yuzimga fotiha tortdim. Ich-ichimda esa o‘yladim: bundaylarni to‘ydirib bo‘larmikin? Ular och emas. Ochofatlik degan xastalikka chalingan. Bekorga bu illatni izohlash uchun “och” so‘ziga “ofat” so‘zi qo‘shilib kirib kelmagan ekan-da tilimizga.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan, sobiq ittifoq tarkibidan endigina chiqqan yillarni yaxshi eslaydigan esi butun yurtdoshlarimiz bor. Ular bo‘m-bo‘sh oziq-ovqat do‘konlari, un, yog‘, shakar uchun beriladigan talonni ko‘tarib turnaqator navbatda turgan kunlarini hali unutishmagan. Bugun ularning ko‘pi tabarruk yoshda, o‘shalardan so‘raylik-chi, hozir yomon yashayapmizmi? Bozorlarga odam kirmay qo‘yganini yozayotganlar xalq azbaroyi puli yo‘qligidan emas, har qadamda bir do‘kon bo‘lganidan o‘ziga qulay joydan savdo qilayotganini ko‘zdan qochiradilarmi? Bir mahallar bir lagandan butun oila osh yegan. Bugun har bolamizga alohida xona qilib bermadikmi? Ko‘chalarimizga avtomashinalar sig‘mayotgani, poson kiyimlarimizning birini kiyib, birini yechib otayotganimiz faqat tushimizdami?


Aytadigan gap ko‘p. “Aqli butun, o‘n barmog‘i ishlaganning puldan qiynalyapman, nochorman, deb o‘zini yerga urishini hech tushunolmayman”, degandi bir suhbatimizda jurnalist Nodira Samandarova.

Darhaqiqat, nega yuksak osmonlarda parvoz qilishi mumkin bo‘lsa-da, ba’zi qushlar yer bag‘irlab uchadi? Chunki ularning nasibasi tuproqda-da. Samoviy kengliklar esa to‘q qushlar uchun. Alloh yaratgan maxluqotlarning eng a’losi sifatida nazarimiz to‘q bo‘lmog‘ini juda-juda istar edim. Zero, yuksaklikka doxillik o‘zbekning qonidadir, aslo qornida emas.

Muhayyo AZIZ


YANGI LUG‘AT

ATAMALAR SHARHI



TVIT – internetdagi X (twitter) ijtimoiy tarmog‘i foydalanuvchisi tomonidan yoziladigan ixcham shakldagi post. Boshqa ijtimoiy tarmoqlarga nisbatan cheklangan hajmga egaligi bilan farqlanuvchi tvit o‘z tarkibiga foto va videolavhalarni ham olishi mumkin.

NEYROTARMOQ – xuddi inson miyasi faoliyatiga taqlidan yaratilgan kompyuter tizimi bo‘lib, unda ham ma’lumotlarni qayta ishlash funksiyasi mavjud. Ular mashina ta’limi kabi yana ko‘plab sohalarda faol qo‘llaniladi.





PROMOSAYT – odatda aksiya va boshqa targ‘ibot tadbirlari chog‘ida mahsulot hamda xizmatlarni xarid qilishga undovchi takliflar jamlangan veb-sayt. Aksar hollarda undan mijozlarni jalb qilishda foydalaniladi.



TROLLING – ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari o‘rtasida turli provokatsion sharhlarni yozish, turli nizoli oqibatlar keltirib chiqaradigan izohlar, haqoratli munosabatlarga asoslangan onlayn xatti-harakatdir.

Gazetxonlarimizda mazkur so‘zlarning o‘zbekcha muqobiliga taklif bo‘lsa, telegram orqali **@jadidgamurojaat_bot** manziliga yuborishlarini so‘raymiz.

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir: Iqbol Mirzo
Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari: Humoyun Akbarov
Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov
Navbatchi muharrir: Dilmurod Do‘stbekov
Sahifalovchilar: Erkin Yodgorov, Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 5 924
Lotin yozuvidagi adadi – 11 924
Media kuzatuvchilar – 19 773
Buyurtma: G – 840.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:50
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz